

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON-AFG`ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**FORS TILIDA O`RIN VA PAYT HOLLARINING
IFODALANISHI**

Tadqiqotda fors tilida o`rin va payt hollarining struktur jihatidan qanday morfologik vositalar bilan ifodalanishi va semantik tahlillar amalga oshirilgan, o`rin va payt hollarini ifodalovchi modellarni yaratilib, grammatik asarlarda qayd etilmagan o`rin va payt hollarining struktur tiplari qayd etilgan. Fors tilidagi o`rin va payt hollarini sintaktik birliklar sifatida ajratish va tadqiq etish, fors tilida o`rin va payt hollarining struktur tiplarini ajratish va modellarini belgilash vazifalari ham amalga oshirilgan.

Bajardi: “Filologiya va tillarni o`qitish (fors tili va adabiyoti)” ta’lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Sharifova Kamola_____

Ilmiy rahbar: “Eron-afg`on filologiyasi” kafedrası
k.o`q., f.f.n. **Ahmedova D.R.**_____

Toshkent – 2014

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti
dekani f.f.n. dots. Omonov Q.

Eron-afg`on filologiyasi kafedrası
mudiri f.f.n. dots. Alimova X.

«____» iyun 2014 y

«____» iyun 2014 y

MUNDARIJA:

KIRISH	5
I BOB FORS TILIDA O`RIN HOLINING STRUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI	9
1.1. Fors tilida o`rin holining ifodalanishi	15
1.1.1. Ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi	15
1.1.1.1. Asosiy old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi	17
1.1.1.2. Izofiy old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi	27
1.1.1.3. Asosiy old ko`makchi+izofali old ko`makchi+ot birkmasi bilan ifodalangan o`rin hollari	27
1.1.2. Ravishlar bilan ifodalangan o`rin holi	36
1.1.3. Fors tilida o`rin holini ifodalanishida inversiya hodisasi	37
1.1.4. Frazologik birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari	39
1.1.2. Distant holatdagi fe`llar bilan birikib kelgan o`rin hollari	39
II BOB FORS TILIDA PAYT HOLINING STUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI	41
2.1. Fors tilida payt holining ifodalanishi	47
2.1.1. Ravishlar bilan ifodalangan payt holi	48
2.1.1.1. “Ravish + ها” birikmasi bilan ifodalangan payt holi	52
2.1.1.2. “Ravish + ravish” birikmasi bilan ifodalangan payt hollari	53
2.1.1.3. “Ravish + از old ko`makchisi” bilan birikib belgan birikmalar bilan ifodalangan payt holi	54
2.1.2. Ko`makchili birikmalar bilan ifodalangan payt hollari	56
2.1.2.1. Asosiy old ko`makchili birikmalar bilan ifodalangan payt holi	56
2.1.2.2. Izofiy old ko`makchili birikma bilan ifodalangan payt holi	61
2.1.3. Ko`rsatish olmoshili birikma bilan ifodalangan o`rin holi	62

2.1.4. Izofiy birikma bilan ifodalangan payt holi	64
2.1.5. Payt holining otlar bilan ifodalanishi	65
2.1.6. Frazeologik birikmalar bilan ifodalangan payt hollari	67
2.2. Distant holatidagi fe'llar bilan birikib kelgan payt hollari	67
XULOSA	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Fors tili va adabiyotini o`rganish va tegishli masalalarini tadqiq qilish boy tarixga egadir. Zero asrlar davomida turkiy va eroniy tillarida so`zlashuvchi qo`shni xalqlarning mushtarak madaniyati vujudga kelgan va taraqqiy etgan. Allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, buyuk shoirlar Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliylar o`z asarlarining salmoqli qismini fors tilida yozganlar. Ularning turkiy tilda bitgan asarlarida ham forsiy va arabiy o`zlashmalar, ya'ni mushtarak so`zlar ham ancha miqdorni tashkil etadi. Zero o`z tarixi, madaniyati, ajdodlari va ular qoldirgan merosni o`rganmay turib kelajakka ishonch bilan olg`a qadamlar tashlash mumkin emas. Bunda albatta qisman bo`lsada fors tili va adabiyoti yordam beradi.

Davlatimizning jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalari kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarimizning xorijiy mamlakatlar hayoti, madaniyati, urf odatlari, tilga bo`lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Bu aloqalarning rivojida xorijiy tillarning o`rni beqiyosdir. Mamlakatimiz prezidenti nafaqat mustaqillik yillarida balki mustaqillikka erishish ostonasida ham ilm-fan imkoniyatlaridan to`laroq foydalanish kerakligi haqida takror va takror ta'kidlab, o`z nutqlarida chet tillarini o`rganish borasida shunday murojaat qilgan edilar: "Umuman, o`rtoqlar, agar rus millatiga mansub kishi o`zbek tilini bilsa, o`zbek esa rus tilini bilsa, buning ustiga hozirga yoshlarimiz yana uchinchi tilni ham bilsalar nur ustiga a'lo nur bo`lmasmidi?..."

"Aytish kerakki, kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo`llab - quvvatlamasdan, o`ylaymanki, biron - bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o`zgartirib bo`lmaydi"¹.

Biz insonlar zamon va makon chegarasi ichida yashaymiz. Makon (fazo) va zamon (vaqt) asrlar davomida olimlar tomonidan tadqiq etib kelingan dolzarb mavzulardandir. Jumladan Aristotel, Avgustin, Demokrit, Platon, al-Kindiy, Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Fahriddin Roziy, Nasriddin Tusiy, Eronshahriy,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T: O'zbekiston, 2012. B.68-92.

Zakariyo ar-Roziy, Nyuton, Eyler, Dekart, Leybnits, Gassendi, Toland, Yum² va boshqalar tomonidan. XX asr boshlarida A.Eynshteyn tomonidan nisbiylik nazariyasining yaratilishi fazo (makon) va vaqt (zamon)ning o'zaro chambarchas bog'liqligi tabiiy, ilmiy va nazariy isbotini topdi. Uning nazariyasi shunday edi: “- Har qanday harakat nisbiydir, ya’ni kosmik kenglikda biror jismning harakatlanishi boshqa bir jismga nisbatan qayd etiladi³.” Aniqlik kiritadigan bo'lsak, har qanday hodisa bir-biriga nisbatan amalga oshiriladi ya’ni makondagi voqea hodisalar zamonga nisbat etiladi.

Tilshunoslik sohasida ham bu masalaning grammatik ifoda etilish holati mavjuddir. Hozirgi kungacha eron tilshunosligida holni, xususan fors tilida o'rin va payt hollarining ifodalanishi chuqur tadqiq etilmagan masalalardandir, chunki fors tili grammatik nazariyasida morfologiya qismi o'rganilgan bo'lib, sintaksis qismi hali to'liq tadqiq etilmagan, shu jumladan hol kategoriyasiga nisbat ham. O'rin va payt hollarining struktur va semantik jihatidan o'rganilishini birinchi bo'lib YU.A.Rubinchikning⁴ grammatik asarida uchratish mumkin.

“Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari” to'g'risidagi prezidentimiz I.A.Karimovning qarorlari⁵ mavzuning dolzarblik darajasini yanada oshiradi. Chet tillarini puxta o'rganishda nazariy grammatika poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Eron tilshunosligida fors tili grammatikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bunga sabab o'sha davrgacha fors tili arab tili grammatikasi ta'sirida, sinkretik holatda bo'lganligi qayd etiladi⁶. Fors tili grammatikasiga oid eron tilshunoslari muallifligidagi asosiy manbalarda faqat tilning morfologik xususiyatlariga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, holni ravishdan ayro holda talqin etmaydilar. Grammatik nazariya, ikkinchi darajali gap bo'laklari xususan hol, rus

² www.google.com, www.Ziyo.net

³ www.kashfiyotlar.narod.ru

⁴ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.472-473.

⁵ Karimov I.A. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari. - T., 2012.

⁶ Ахмедова Д.Р. Форс тилида тарз ҳолининг структур ва семантик таснифи. - T., 2011. Б.6-7.

tilshunosligida A.G.Rudneyev⁷, V.M.Nikitin⁸, Y.Krjijkova⁹, N.A.Potaenko¹⁰, o'zbek tilshunosligida D.S.Semigulova¹¹, D.X.Shodmonqulova¹², F.Ubayeva¹³, eron tilshunosligida L.S.Peysikov¹⁴, YU.A.Rubinchik¹⁵, D.R.Ahmedova¹⁶ tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqot natijasida to'plangan nazariy manba va materiallar asosida fors tilida o'rin va payt hollarining struktur jihatidan qanday morfologik vositalar bilan ifodalanishi va semantik tahlillarni amalga oshirishni, o'rin va payt hollarini ifodalovchi modellarni yaratishni grammatik asarlarda qayd etilmagan o'rin va payt hollarining struktur tiplarini qayd etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotning vazifalari qilib quyidagilarni belgilab oldik:

-fors tilidagi o'rin va payt hollarini sintaktik birliklar sifatida ajratish va tadqiq etish;

-fors tilida o'rin va payt hollarining struktur tiplarini ajratish va modellarini belgilash;

-tadqiqot natijasida to'plangan manbalar asosida fors tilida o'rin va payt hollarini ifodalab kelgan so'zlar va so'z birikmalari ma'lumot bazasini yaratish;

-fors tilida o'rin va payt hollarining semantik tasnifi va tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga manba sifatida hozirgi zamon Eron adabiyoti sirasiga kiruvchi Takin Hamzeluning “افسون سبز” romani, Hushang Gulshiriyning “چنار” hikoyasi, J.E.Hazratqulov, M.Sh.Abdusamatovlarning “Eron adabiyoti xrestomatiyasi” to'plami va professor A.Quronbekov., katta o'qituvchi

⁷ Руднев А.Г. Второстепенные члены предложения. Том 122, – Л.: Уч.зап. ЛенГПИ, Том 122, 1956.

⁸ Никитин В.М. Обстоятельство места и направления. - Б.: Уч.зап. Бурятского ГПИ, 1958.

⁹ Кржижкова Е. Адвербальная детерминация со значением места и направления. - ВЯ., 1967. С.32-48.

¹⁰ Потаенко Н.А. Категории времени и её выражение в лексико семантической системе языка. - М., 1991.

¹¹ Семигулова Д. Обстоятельства места и времени в современном узбекском языке: Автореферат. - Т., 1961.

¹² Способы и средства выражения временных отношений в современном узбекском языке. – Т., 1990.

¹³ Убаева Ф. Хозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. - Т.: Фан, 1971.

¹⁴ Пейсиков Л.С Вопросы синтаксиса персидского языка. - М., 1959. С.411.

¹⁵ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Русский язык, 2001. С.344-477, 791-844.

¹⁶ Аҳмедова Д.Р. Форс тилида тарз ҳолининг структур ва семантик таснифи. - Т., 2011.

T.Ziyayeva., filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.Vohidov tomonidan tuzilgan darsliklardan¹⁷ foydalanildi. To`plangan kartotekalar soni 1000 dan oshadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Tadqiqot jarayonida YU.A.Rubinchik, S.L.Peysikov, F.Ubayeva, R.L.Nemenova, D.R.Ahmedova va bir qator tilshunoslarning ilmiy ishlariga asoslandik.

Tadqiqot metodi. Bitiruv malakaviy ishida struktur, tavsifiy, qiyosiy-solishtirma metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining natijalari fors tili nazariy sintaksisining shu kunga qadar maxsus o`rganilmagan masalasi – o`rin va payt hollarining morfologik tabiati va struktur xususiyatlari bo`yicha nazariy qarashlarni ilgari suradi va fors tili sintaksisidagi gap bo`lagi xususan o`rin va payt hollarini ajratish va tasniflash yuzasidan amalga oshiriladigan boshqa ishlar, filologiya (fors tili) yo`nalishi talabalari uchun bitiruv malakaviy ishida aks etgan faktik materiallar o`rin va payt hollari haqidagi nazariy bilimlarini yanada boyitish uchun darslikdan tashqari qo`shimcha material vazifasini o`tashga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki tadqiqot bobi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Birinchi bob “Fors tilida o`rin holining struktur va semantik tahlili” deb nomlanadi. Ikkinchi bobda “Fors tilida payt holining struktur va semantik tahlili” nomi ostida fors tilida payt holi tadqiq etiladi. Har bir bob o`z mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki qismlarga bo`lingan. Xulosa qismida tadqiq etilgan manbalar, misollar va tilshunoslarning asarlaridan foydalanilgan holda kelib chiquvchi asosiy natijalar, nazariy va amaliy umumlashmalar bayoni keltiriladi.

¹⁷ Quronbekov A., Ziyayeva T, Vohidov A. Fors tili: Darslik. Tom 1,2. – T.: Musiqa, 2006

I BOB

FORS TILIDA O`RIN HOLINING STRUKTUR VA SEMANTIK

TAHLILI

Gap bo`laklari: gapda biror so`roqqa javob bo`lgan va o`zaro tobe bog`langan so`z yoki so`z birikmasi gap bo`lagi deyiladi. Soddaroq qilib aytganda gapdagi so`zlar bir-biri bilan grammatik munosabatga kirishadi va gap bo`lagini tashkil qiladi¹⁸. Gap bo`laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. Gap bo`laklarini turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to`ldiruvchi to`ldirmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo`lak bo`lmas ekan, u yoki bu gap bo`lagi haqida gapirish mumkin emas!

Gap bo`laklari ikki hil bo`ladi - bosh bo`laklar va ikkinchi darajali bo`laklar. Bosh bo`laklar gapning mazmun jihatidan ham, shakliy jihatidan ham o`zaro bog`langan ikki uyushtiruvchi markazi bo`lib, ular o`zaro predikativ aloqa orqali tutash bo`ladi. Bu predikativ yadro, konstruktiv markaz ikki markazli gapning asosidir. Ikki markazli gaplarda har bir markazning grammatik hokim so`zi birgalikda gapning bosh bo`laklarini tashkil qiladi. Gapning ikkinchi darajali bo`laklari - ikki markazning hokim elementlardan boshqa bo`laklardir. Ega va kesim markazi ikki markazli gapning strukturasini tashkil qiladi. Ikkinchi darajali bo`laklar yo egaga, yo kesimga bog`lanib, yo ega markazini, yo kesim markazini hosil qiladi, ya'ni ega va kesim markazi ikki markazli gapning strukturasini tashkil qiladi.¹⁹

Gapning bosh bo`laklari gapni sintaktik va semantik tashkil qilishda asosiy rol o`ynaydi va gapning butun strukturasini belgilaydi. Demak, ega va kesim gapning asosiy markazi hisoblanadi. Gapdagi qolgan bo`laklar esa ikki markazdan biriga bog`lanadi. Bu markazga bog`langan elementlar shu bo`lakka tobe bo`ladi. Ega va kesim o`ziga bog`langan so`zlar ustidan hokim bo`ladi. Bular hech qanday bo`lakka tobe emas.

¹⁸ Rafiev A., Rafieva L. O'zbek tili va adabiyoti. - T., 2008. B.56.

¹⁹ Arab tili fanidan 22.05.00. Sharq filologiyasi bakalaviaturasining 1-4 kurslari uchun ma'ruza matnlari. - T., 2008. B.135.

Bosh boʻlakning birinchi darajali sanalishi uning boshqa elementlarni tobe etishidan qatʼiy nazar oʻzicha mustaqillikka, bir butunlikka ega boʻlishi gapning asosini tashkil qilishidandir. Qolgan boʻlaklar esa bosh boʻlaklarga ergashadi, shunga koʻra ular ikkinchi darajali hisoblanadi.

Darajalarni faqat tobelikka qarab belgilasak, kesimni ham ikkinchi darajali sanash lozim boʻlar edi, chunki kesim egaga tobedir. Holbuki, u birinchi darajali boʻlak hisoblanadi. Chunki ega va kesim boshqa boʻlaklarsiz bir butunlikni tashkil qila oladi. Ikkinchi darajali boʻlaklarda esa bu xususiyat yoʻq.²⁰

Gap boʻlaklarini oʻrganish ham oʻz tarixiga ega. Gap boʻlaklarini, jumladan ikkinchi darajali boʻlaklarni oʻrganish bilan tilshunos olimlar shugʻullanib, turli xil natijalarga kelganlar. Ulardan baʼzilari gap boʻlaklarini ikkita desa, baʼzilari uchta deydi, baʼzilari esa gap boʻlaklarini beshga boʻladi.²¹

A.M.Peshkovskiy “Русский синтаксис в научном освещении”²² nomli asarida sintaksisning tekshirish obyekti deb soʻz birikmalarini tushunadi. Shuning uchun ham ikkinchi darajali boʻlaklarni soʻz birikmalari nomi bilan ataydi. Sh.T. Akramov²³ ikkinchi darajali gap boʻlaklarini soʻz yoki gap kengaytiruvchilari deb ataydi.

Oʻzbek tilshunosligida gap boʻlaklari ularning oʻziga xos xususiyatlariga oid masalalarni D.Ashurova²⁴, D.Semigulova²⁵, M.Moʻminova²⁶, A.Amirova²⁷, A.Safaev²⁸, F.Ubaeva²⁹, J.Omonturdiyev³⁰, M.Bashmanov³¹, R.Abdusamatov³², N.Mahmudov., A.Nurmonov³³, Sh.Akramov³⁴, A.Sayfullayev³⁵, N.Ortiqova³⁶,

²⁰ Arab tili fanidan 22.05.00. Sharq filologiyasi bakalaviaturasining 1-4 kurslari uchun maʼruza matnlari. – T., 2008. B.135.

²¹ Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. – Т.: Фан, 1971. Б.5-9.

²² Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1956. С. 283.

²³ Акромов Ш.Т. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол: Автореферат. – Т., 1997. Б.8.

²⁴ Ашурова Д. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гапнинг уюшган иккинчи даражали бўлаклари. – Т., 1961. Б.133.

²⁵ Семигулова Д.С. Обстоятельства места и времени в современном узбекском языке: Автореферат. – Т., 1961.

²⁶ Мўминова М. Равиш ҳоли ҳақида баъзи бир мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1963. Б.49-52.

²⁷ Амирова А. Обстоятельства причины и цели. – Самарканд, 1967. С.20.

²⁸ Сафеев А.С. Второстепенные члены предложения в современном узбекском языке. – Т., 1969.

²⁹ Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. – Т.: Фан, 1971. Б.5-9.

³⁰ Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. – Т.:Ўқитувчи, 1988. Б.212.

³¹ Башманов М. Ўзбек тилининг гап бўлақларини система сифатида ўрганиш методологияси: Ўқув қўлланма. – Хўжанд, 1994. Б.34.

³² Абдусаматов Р.А. Ўзбек тилининг гап бўлақларининг ноамалий мавқеи масаласи. – Самарканд, 1994. Б.21.

³³ Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. Б.166.

Sh.Rahmatullayev³⁷, X.Usmonova³⁸, M.Mirtojiyev³⁹ va boshqalarning ishlarida ko`rish mumkin.

Eron tilshunosligida bosh va ikkinchi darajali gap bo`laklarini ajratish mezonlari mavjud emas. L.S.Peysikov, YU.A.Rubinchik fors tilidagi soda gap va uning bo`laklarini struktur tiplarini maxsus tadqiq etib, gapning bosh va ikkinchi darajali bo`laklarini ajratadilar.

YU.A.Rubinchik fors tilida ikkinchi darajali bo`lakni belgilashda quyidagi asoslarga tayanadi:

1. Ikkinchi darajali bo`lak tobe bo`lgan hokim a`zoning qaysi so`z turkumiga xosligi;
2. Hokim so`zga tobelanish vositasi;
3. Ikkinchi darajali bo`lakning tobe a`zo sifatida joylashgan o`rni;
4. Ifodalagan ma`nosi;
5. Ikkinchi darajali bo`lakni ifodalagan so`z turkumi.⁴⁰

Keltirilgan belgilarning ba`zilari ikkinchi darajali bo`laklarni aniqlashda yetakchi hisoblansa, boshqalari ularning turlarini belgilash uchun xizmat qiladi.

L.S.Peysikov fors tilida gap bo`laklarining quyidagi asosiy belgilarini qayd etadi:

1. Ma`no anglatish, lekin o`z chegarasidan nariga o`tmaydigan ma`noni emas, balki turli yoyiq jumla tarkibidagi boshqa bo`lak yoki bo`laklar bilan birgalikda predikativ, atributiv-adverbial, obyektli va modal munosabatlarni ifodalash uchun;
2. Gap bo`laklarini ifodalovchi morfologik vositalarning mavjudligi.⁴¹

Gap bo`lagi jumla tarkibida mavjud grammatik munosabatlarni ifodalash uchun jumla tuzilishida ishtirok etadigan so`zning ma`lum morfologik sintaktik shakli yoki sintaktik guruhi hisoblanadi.

³⁴ Акрамов Ш.Т. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол. – Т., 1997.

³⁵ Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов в современном узбекском языке. – Т., 2001. С.47.

³⁶ Ортикова Н.Х. Гап тузилишида аниқловчининг ўрни: Автореферат. - Фарғона, 2005. Б.23.

³⁷ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili. – Т.: Universitet, 2006. В.464.

³⁸ Усмонова Х.Ш. Ўзбек тилидаги гап бўлакларининг позиция структураси: Диссертация. – Т., 2009. Б.230.

³⁹ Миртожиев М.М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Т.: Университет. 2007. Б.64.

Гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Т.: Университет. 2008. Б.200.

⁴⁰ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Русский язык, 2001.С.791-844.

⁴¹Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М., 1959. С.411.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda ikkinchi darajali gap bo`laklarini ajratishda tilshunoslar o`rtasida yakdillik yo`q. Ikkinchi darajali bo`laklarni belgilashda barcha tilshunoslar faqat bir masalada birlashadilar. Ularning hammasi gap bo`laklarini tobelanish munosabatiga kirishadimi, yo`qmi degan masalani o`rtaga qo`yadilar. Tobelanish munosabatiga kirishsa, ikkinchi darajali gap bo`lagi, tobelanish munosabatiga kirishmasa bosh bo`laklar hisoblanadi. Bundan tashqari fors tilida ikkinchi darajali bo`laklar chuqur ilmiy tekshirish ishlarini taqazo etadigan tilshunoslik masalalaridandir.

Rus tilshunosligida M.B.Lomonosov⁴² birinchi bo`lib “hol” terminini qo`llagan⁴³. F.Ubayevaning gapning ikkinchi darajali bo`lagi bo`lgan holning semantik-sintaktik klassifikatsiyasi, ifodalanishi, hol bilan to`ldiruvchining chegarasi, sintaktik sinonimiya masalalari keng yoritilgan “Hozirgi o`zbek adabiy tilida hol kategoriyasi” kitobida hol kategoriyasiga shunday ta`rif beriladi: “Hol ikkinchi darajali bo`laklarning eng murakkabidir. Hol harakat holatning qanday holda, qanday vaziyatda, qay usulda, qachon, qayerda, nima uchun, nima maqsadda, qanday shart bilan bajarilishi, bajarilish miqdori, darajasi, harakat-holatning bajarilishida sub`ektning qanday holatda bo`lishi kabi bir qancha belgilarni ko`rsatadi; sub`ekt, predikat va ob`ekt munosabatlarini reallashtiradi, ularning ob`ektiv borliqqa munosabatini belgilaydi.”⁴⁴

Hol kategoriyasi ichida o`rin va payt hollari keng tarqalgandir. Haqiqatdan ham yuz berish o`rni va payti bo`lmagan holatlar juda kam. O`rin holi ish-harakat yoki holatning o`rni, chiqish, boshlanish yeri yoki harakat yo`naltirilgan tomonni anglatadi. Shuningdek, o`rin holi predmetning o`rnini ko`rsatish bilan birga, predmet holatining yuz berish o`rnini, predmet harakatiga xos bo`lgan turli xil o`rin ma`nolarini ham ifodalaydi.

Makon munosabatining ifodalanishida semantik farqlar mavjud, bu borada o`zbek tilshunoslarining fikrlari deyarli bir xil. O`zbek tili grammatikasiga oid adabiyotlarda o`rin holi o`rin anglatishiga ko`ra quyidagi 3 guruhga ajratiladi:

⁴² Ломоносов М.В. Российская грамматика. – М., 1758. С.574-578.

⁴³ Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. - Т.: Фан, 1971. Б.5.

⁴⁴Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. - Т.: Фан, 1971. Б.17.

1. Harakatning bo`lish o`rni;
2. Harakatning yo`nalish o`rnini;
3. Harakatning chiqish, boshlanish o`rnini ko`rsatuvchi ravish hollari.⁴⁵

Lekin, F.Ubaeva o`zining “Hozirgi o`zbek adabiy tilida hol kategoriyasi” kitobida o`rin holini voqelikka nisbatan ifodalanishiga ko`ra sakkiz turga bo`lgan. Bular:

1. Predmetning o`rnini ko`rsatuvchi;
2. Predmet holatining yuz berish o`rnini ko`rsatuvchi;
3. Predmet harakatining yuz berish o`rnini ko`rsatuvchi;
4. Predmetning chiqish, boshlanish o`rnini ko`rsatuvchi;
5. Predmet harakatining yo`nalish o`rnini ko`rsatuvchi;
6. Predmet harakati yo`nalishining oxirgi nuqtasi, chegarasini ko`rsatuvchi;
7. Predmet harakatining boshlanish va tugash nuqtasini bildiruvchi;
8. Predmet harakatining yo`nalishini, biror tomonga yo`naltirilgan harakatning nima bo`ylab yuz berishini bildiruvchi o`rin holi⁴⁶.

Rus tilshunosligida o`rin holi V.V.Vinogradov<sup>47</sup>, A.G.Rudnev<sup>48</sup>, va boshqa tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Ularni tadqiqotlari natijasida o`rin holini semantik jihatdan uch guruhga bo`lib, uning qanday ma`no anglatishi borasida quyidagicha fikrlarni bildirishgan:

A.G.Rudnev o`rin hollariga ish - harakat yoki holatning bajarilish o`rnini, ish - harakatning qayerdan yoki qayerga yo`naltirilganligini bildiradi va qayerdan?, qayerga? va qayerda? savollariga javob bo`ladi”, deb ta`rif beradi⁴⁹.

V.V.Vinogradov o`rin hollarini o`rin ma`nosini ifodalashiga ko`ra quyidagi guruhlarga bo`ladi:

1. Ish-harakat yoki holatning o`rnini anglatgan o`rin hollari;

⁴⁵ Bu haqda: Фуломов А.Ф., Аскарлова М.А. Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. - Т., 1987. Б.118-119., Мирзаев М., Усмонов У., Расулов И. Ўзбек тили. - Т., 1962. Б.190-191., Семигулова Д.С. Обстоятельства места и времени в современном узбекском языке: Автореферат. - Т., 1961.

⁴⁶ Убаева Ф. Хозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. - Т.: Фан, 1971. Б.19-21.

⁴⁷ Грамматика русского языка. Том 2. - М.: Изд-во АН СССР. 1954. С.581.

⁴⁸ Руднев А.Г. Второстепенные члены предложения. - Л.: Уч.зап. ЛенГПИ, 1957. С.122.

⁴⁹ Руднев А.Г. Ko`rsatilgan asar. С.37.

2. Ish-harakat yoki holat yo`nalishini anglatgan o`rin hollari. Bu guruh o`z ichida yana 3ga ajratiladi:

- a) predmet harakatining yo`nalish o`rnini;
- b) ish-harakatning boshlanish, chiqish o`rnini;
- v) ish-harakatning tugash o`rnini bildirgan o`rin hollari.

3. Harakatning nima bo`ylab yuz berishini bildirgan o`rin hollari⁵⁰.

Y.Krjijkova o`zining aynan o`rin holiga bag`ishlangan ishida esa quyidagi ma`lumotlarni bergan: "...harakatning yo`nalish o`rnini bildiruvchi barcha hollarni ma`nolari asosida an`anaga muvofiq:

- 1. Harakatning bo`lish o`rni;
- 2. Harakatning chiqish, boshlanish o`rni;
- 3. Harakat yo`nalishining oxirgi nuqtasini ifodalashiga ko`ra tasnif qilish

mumkin.⁵¹

YU.A.Rubinchik fors tilidagi o`rin hollarini ma`no jihatidan 3 guruhga bo`lgan:

- 1. Ish-harakat o`rnini bildirgan o`rin hollari;
- 2. Harakat yo`nalishini bildirgan o`rin hollari;
- 3. Harakatning nima bo`ylab yuz berishini(marshrutini) anglatgan o`rin hollari⁵².

Ishimizda fors tilidagi o`rin hollarini uch semantik guruhga ajratib, shu uchta katta guruh ichida yana kichik bo`limlarga ajratib chiqdik.

- 1.Ish-harakat yoki holatning o`rnini anglatuvchi o`rin hollari:
 - predmetning o`rnini;
 - predmet holatining yuz berish o`rnini;
 - predmet harakatining yuz berish o`rnini bildiruvchi o`rin hollari.
- 2.Ish-harakat yo`nalishini bildiruvchir o`rin hollari:
 - qayerga?
 - qayerdan?

⁵⁰ Грамматика русского языка. Том 2. - М.: Изд-во АН СССР, 1954. С.581.

⁵¹ Кржижкова Е. Адвербальная детерминация со значением места и направления. - ВЯ., 1967. С.32-48.

⁵² Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.472-273.

- qayergacha? savollariga javob beruvchi o`rin hollari.

3. Ish-harakatning nima bo`ylab yuz berishini bildiruvchi o`rin hollari.

Semantik jihatdan alohida guruhlarga ajratmasdan, struktur tahlillar bilan birga olib borishni ma`qul deb topdik.

1.1. Fors tilida o`rin hollarining ifodalanishi

YU.A.Rubinchik fors tilida o`rin hollari vazifasida “old ko`makchilar + o`rin ma`nosini anglatuvchi otlar” birikmasi (dar kuče “ko`chada”, از شهر *az šahr* “shahardan”, به جنگال *be jangāl* “o`rmonga”, زیر بام *zir-e bām* “tom tagida”, روی میز *ru-ye miz* “stol ustida”), ravishlar (اینجا *injā* “bu erda”, آنجا *ānjā* “u erda”, کجا *kojā* “qayerda”, در همه جا *dar hame jā* “hamma yerda”), ismiy va turg`un birikmalar bilan ifodalangan ravishlar (از دور *az dur* “uzoqdan”, نزدیک *az nazdik* “yaqindan”, از دور و نزدیک *az dur o nazdik* “uzoq yaqindan”) kelishi mumkin.<sup>53</sup> deb ta`kidlaydi. Tadqiqotimiz natijasida to`plangan misollar asosida fors tilida o`rin hollarining ifodalanishini quyidagi struktur tiplar ko`rinishiga keltirishga harakat qildik.

1.1.1. Ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

Ma`lumki, har bir so`z turkumi uni mustaqil so`z sifatida ajratish uchun bir xil xususiyatga ega emas. Shuning uchun barcha so`zlar o`zining ma`no anglatishi va leksik-grammatik xususiyatlariga qarab ikki guruhga bo`linadi: mustaqil so`z turkumi va yordamchi so`z turkumi.

Ko`makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlarni ifodalashi bilan birga ko`makchilar nafaqat so`zlar o`rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi, balki ularni bog`lash vazifasini ham bajaradi. Bu vazifa mantiqan ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ko`makchilar so`zlarning o`zaro munosabatlarini ifodalagani uchun shu munosabatni vujudga keltiradigan so`zlar o`rtasida bog`lovchi halqa rolini o`ynaydi.⁵⁴

⁵³ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.472.

⁵⁴ Ахмедова Д.Р. Форс тилида тарз холининг структур ва семантик таснифи. - Т., 2011. Б.69.

V.V.Vinogradov⁵⁵ o`rin, payt, sabab, maqsad, o`zlik, chegaralovchi va boshqa munosabatlarni ob`ektlar o`rtasida yoki shunday munosabatlarda ob`ektning ish-harakatga, holat va sifatga nisbatan ifodalash uchun xizmat qiladigan so`z turkumi ko`makchi deyiladi. Ko`makchilar bir tomondan ot, olmosh yoki substantivlashgan sifat va sonlarning “kosvenniy padej” shakllari, ikkinchi tomondan fe`l, ot, olmosh, sifat, kam hollarda ravishlar o`rtasidagi sintaktik munosabatlarni bildirishini qayd etadi.

Fors tilida kelishik qo`shimchalari mavjud bo`lmagani uchun, ko`makchilar katta ahamiyatga ega. Ko`makchilar bajaradigan vazifalari va semantikasi jihatidan xilma xildir. Ularning mustaqil so`z turkumlaridan farqi shundaki, ular mustaqil ma`no anglatmaydi.

Fors tilidagi ko`makchilar ma`no anglatishi, tuzilishi, leksik grammatik funksiyalari borasida o`ziga xos xususiyatga ega.

Zamon, makon va boshqa munosabatlarni ifodalash uchun ba`zi mustaqil so`z turkumlari ko`makchilar bajaradigan vazifaga yaqinlashadi, ba`zilari esa bir qator ko`makchilarning ma`nosini yanada aniqlashtirish maqsadida ko`makchilar bilan birga ishlatilib, murakkab old ko`makchilarni hosil qiladi.

L.S.Peysikovning fikricha: old ko`makchilar «relyativ so`z», so`zlarni bir-biriga bog`lash uchun xizmat qiladi va so`z birikmasining teng huquqli a`zosi bo`la olmaydi. Kelishik qo`shimchalari kabi, old ko`makchilar erkin so`z birikmasining komponentlari munosabatini ifodalash bilan bir qatorda, ular o`rtasidagi ma`noviy (makon, zamon) munosabatlarni ham anglatib keladi⁵⁶.

Fors tilida barcha ko`makchilar 2 guruhga bo`linadi: 1) birlamchi (asl) ko`makchilar 2) ikkilamchi ko`makchilar ya`ni izofali old ko`makchilar.

Fors tilidagi old ko`makchilarning har biri bir qancha ma`nolarni anglatib keladi. Biz ularning hammasiga to`xtalmay, faqat o`rin ma`nosini ifodalab kelgan holatlarigagina to`xtalib o`tamiz.

⁵⁵Виноградов В.В. Русский язык. - М.: Учпедгиздат, 1947. С.677.

⁵⁶Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М., 1959. С.27.

Old ko`makchilar bilan kelgan otlar harakat o`rni va yo`nalishini ifodalashda ancha aniq vosita hisoblanadi.

Old ko`makchilar ot bilan birikkan holda eng keng tarqalgan makon munosabatlarini ifodalovchi vositani hosil qiladi. Biz ko`rib chiqqan manbalarning 80%ini ana shunday birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari tashkil qiladi.

To`plangan materiallar tahlili shuni ko`rsatdiki, fors tilida ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin hollari 3ga bo`lindi:

1. Asosiy (asl) old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi;
2. Izofali old ko`makchi birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi;
3. “Asosiy old ko`makchi + izofali old ko`makchi + ot” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi.

1.1.1.1. Asosiy old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

Asosiy old ko`makchilar semantik jihatidan ko`p ma`noli hisoblanadi va ularning qaysi ma`noni anglatib kelayotganligi faqat so`z birikmasi yoki gap tarkibida aniqlanadi.

Asosiy old ko`makchilarning o`ziga xos xususiyati shundaki, ulardan keyin izofa ishlatilmaydi.

Hozirda fors tilida 9 ta asosiy old ko`makchi bor: از *az* “dan”, بر *bar*, به *be* “ga”, در *dar* “da”, تا *tā* “gacha”, با *bā* “bilan”, جز *joz*, bi “-siz”, برای *barā-ye* “uchun”<sup>57</sup>. Bulardan از , در , به , تا , old ko`makchilari o`rin holini ifodalashda xizmat qiladi. بر old ko`makchisi kammahsul ko`makchilardan hisoblanadi. Bu ko`makchi o`rin holini ifodalashda xizmat qilsada, misollarimiz ichida kam uchradi. Bunga sabab bu ko`makchi asosan, she`r va g`azallarda uchraydi, o`zbek tiliga –ga, -da, deb tarjima qilinishi qayd etilgan⁵⁸.

با تسلط دولت بزرگ سلجوقیان بر آسیای صغیر، فارسی زبان رسمی و ادبی این نواحی شد. (4:6)

Saljuqiylarning buyuk davlatining Kichik Osiyoda tashkil topishi bilan, fors tili bu viloyatning rasmiy va adabiy tiliga aylandi.

⁵⁷ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.312.

⁵⁸ Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili: oliy o`quv yurtlari uchun darslik. – T., 2006. B.76.

Yuqorida aytib o`tilganidek, o`rin holi old ko`makchi bilan birikib kelgan ot, o`rin ravishlari va olmoshlar birikmasi bilan ifodalanadi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, o`rin holining “old ko`makchi + toponim” bilan ifodalanishi kammahsul, “old ko`makchi + turdosh ot” bilan ifodalanishi mahsuldor hisoblanadi.

Asosan geografik nomlarni bildiruvchi toponimlar old ko`makchilar bilan birikib, o`rin holi vazifasida kelishi mumkin.

Masalan:

... درست یادم نیست که تابستان پیرارسال بود یا بیش پیرارسال به مشهد مقدس رفته بودم...

(2:196)

...bir yil burungi yozmidi yoki undan oldingi yilmi aniq esimda yo`q muqaddas Mashhadga borgan edim...

a) old ko`makchili birikmalar bilan ifodalangan o`rin holi

-predmet harakatining yuz berish o`rnini:

نسیم هم صبحها در یک درمانگاه کار می کرد. (1:123)

Nasim ham ertalablari bir shifoxonada ishlar edi.

-predmet o`rnini:

... وقتی چشمانم را باز کردم، متوجه شدم در اتوبان تهران کرج هستیم. (1:65)

Ko`zlarimni ochgan vaqtimda Tehron-Karaj katta yo`lida ekanligimizni angladim.

-predmet holatining yuz berish o`rnini bildiradi va qayerda? savoliga javob bo`ladi:

... ترن در ایستگاه شاهرود ایستاده بود... (2:202)

...poyezd Shohrud bekatida to`xtab turgan edi...

“**ot**” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi. Bu struktur ko`rinishda old ko`makchi + toponimlar, turdosh otlar kelishi mumkin.

-**toponimlar bilan:**

... فرزانه در امریکا زندگی می کرد و دو پسر داشت و فرناز در فرانسه زندگی می کرد و یک

دختر خیلی ناز داشت. (1:54)

...*Farzona Amerikada yashar edi va ikkita o`g`li bor edi, Farnoz Fransiyada istiqomat qilar edi va juda shirin bir qizi bor edi.*

آن چند روز که در کیش بودیم، بازارهای متعدد کیش را نگاه می کردیم. (1:61)

Kishda bo`lgan o`sha bir necha kunimizda, Kishning bir qancha bozorlarini tomosha qilardik.

-turdosh otlar bilan:

...هر دو در خارج تحصیل کرده و همانجا ازدواج کرده بودند. (1:45)

...har ikkisi xorijda o`qigan va o`sha yerda turmush qurgan edilar.

از پشت جمعیت صدای روزنامه فروشی در فضا پخش شد. (3:3)

Jamiyat ortidan gazeta sotuvchining ovozi fazoda yangradi.

“izofiy birikma + در” bilan ifodalangan o`rin holi

... وقتی چشمانم را باز کردم، متوجه شدم در اتوبان تهران کرج هستیم. (1:65)

Ko`zlarimni ochgan vaqtimda Tehron-Karaj katta yo`lida ekanligimizni angladim.

... ترن در ایستگاه شاهرود ایستاده بود... (2:202)

...poyezd Shohrud bekatida to`xtab turgan edi ...

اتوبوس در شهر رضا توقف نکرد و برای سوخت در پمپ بنزین نگه داشت. (4:18)

Avtobus Rezo shahrida to`xtamadi, yoqilg`i uchun yoqilg`i quyish shahobchasida to`xtadi.

“ko`rsatish olmoshi + ot” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

قرار شد شب را در همان هتل بمانیم و صبح با پرواز ایران ایر به جزیره کیش پرواز کنیم. (1:58)

Tunni o`sha mehmonxonada o`tkazib, tongda Eron havo yo`llari orqali Kish oroliga parvoz qilishimiz kelishildi.

... چه جور مردانی در این دنیا، وجود دارند... (1:74)

...bu dunyoda qanday kishilar bor...

... زنها در آن روستا واقعاً از همه چیز عقب هستند... (1:113)

...ayollar u qishloqda deyarli hamma narsadan ortda qolganlar...

“**son + ot**” **birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi**

فرید صبح ها هم در یک درمانگاه مریض ویزیت می کرد. (1:61)

Farid ertablari ham bir shifoxonada bemor qabul qilar edi.

نسیم هم صبحها در یک درمانگاه کار می کرد. (1:123)

Nasim ham ertablari bir shifoxonada ishlari edi.

“**o`rin ravishi**” **birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi**

...مبل های معرق کاری شده با فرش ها و قالیچه های ابریشم تبریز، در همه جا به چشم می

خورد. (1:54)

Tabrizning ipak gilam va gilamchalari bilan bezatilgan mebellar hamma yerda ko`zga tashlanar edi.

در آنجا آثار قدیم و دیدنی خیلی زیاد است. (4:17)

U yerda qadimiy va diqqatga sazovor yodgorliklar juda ko`p.

R.L.Nemenova در old ko`makchisini ish-harakatning ichkariga yo`nalishini bildirib, به old ko`makchisiga sinonim bo`lib kelishini va bu holat mahalliy so`zlashuv va klassik adabiyotda uchrashini qayd etadi.<sup>59</sup> To`plangan misollar orasida در old ko`makchili birikmalar o`zbek tiliga “...ga” shaklida tarjima qilinishi aniqlandi:

همان روزها خرخوانی های نسیم هم نتیجه داد و رشته دندانپزشکی در یگ دانشگاه خوب قبول شد.

(1:27)

O`sha kunlarda Nasimning urinishlari ham natija berdi va bir yaxshi institutga tish shifokorligi yo`nalishiga qabul qilindi.

یک ساک کوچک بر داشتم و چند لباس، شناسنامه و مدارک را در آن گذاشتم. (1:57)

Bir kichik halta oldim va bir nechta ko`ylak, pasport va partiyaga a`zolik guvohnomamni unga soldim.

وقتی وسایلمان را در کمد ها گذاشتیم، خسته روی تخت نشستم و به اطراف نگاه کردم. (1:59)

Yuklarimizni javonlarga qo`yib, charchab o`rin ustiga o`tirdim va atrofga qaradim.

⁵⁹ Неме́нова Р.Л. Предлоги в таджикском языке. – Сталинабад: Изд-во Академии Наук Таджикской ССР, 1959. С.14.

... گلهارا در یک گلدان گذاشت. (1:127)

... *gullarni bir guldonga soldi.*

... جواهرات را در جعبه چیدم، ... (1:157)

... *taqinchoqlarni qutiga soldim, ...*

از صبح تا شب صد نفر می آمدند در خانه اش، لباس و پول و غذا می بردند و می آوردند.

(1:178)

Ertalabdan kechgacha yuztasi uyiga kelardi, kiyim, pul va taom olib kelishardi, ketishardi.

اول بخیالشان گربه یا بچه در حوض افتاده سر و پا برهنه چراغ را روشن کردند، ... (2:97)

Avval hayollariga mushuk yoki bola hovuzga tushib ketgan deb bosh-oyoq yalang chiroqni yoqdilar, ...

b) old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

به old ko`makchili birikma ish-harakat yo`nalishini bildirib, harakatning predmet turgan joydan qayoqqa, qaysi tomonga yo`nalishini ko`rsatadi va qayerga? savoliga javob bo`ladi.

“+ ot” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

-toponimlar bilan:

... سالها می شد به دلیل شغل پدرش به تهران کوچ کرده و در همانجا هم زن گرفته و زندگی تشکیل

داده بود. (1:16)

Otasining kasbiga ko`ra Tehronga ko`chgan va o`sha yerda uylanib, turmush qurgan edi.

انگار قصد بر گشتن به ایران را نداشتند.... (1:56)

Xuddi Eronga qaytish niyatlari yo`q bo`lgandek...

چند سال قبل با پدر و مادر و نسیم به کیش رفته بودیم. (1:57)

Bir necha yil oldin ota-onam va Nasim bilan Kishga borgan edik.

-turdosh otlar bilan

با زحمت خودم را به حمام رساندم، ... (1:11)

Qiyinchilik bilan hammomga yetib bordim, ...

...بعد از تعطیلات، صبح زود به بیمارستان رفتم. (1:44)

...ta'tildan so'ng, erta tongda shifoxonaga bordim.

با نسیم روبرو نشوم سر شب به رختخواب رفتم... (1:52)

Nasim bilan yuzma-yuz kelmaslik(ro'para bo'lmaslik) uchun kech tushmay o'rnimga yotib oldim.

وقتی وسایلمان را در کمد ها گذاشتیم، خسته روی تخت نشستیم و به اطراف نگاه کردم. (1:59)

Yuklarimizni javonlarga qo'yib, charchab o'rin ustiga o'tirdim va atrofqa qaradim.

وقتی از راه رفتن خسته شدیم به پیشنهاد فرید دوباره به هتل برگشتیم و شام خوردیم. (1:60)

Yo'l yurishdan charchagan paytimizda Faridning taklifiga ko'ra yana mehmonxonaga qaytdik va kechki ovqat yedik.

آن شب زودتر از مطب آمده بود تا مرا به رستوران ببرد. (1:140)

O'sha kuni meni restoranga olib borishi uchun shifoxonadan ertaroq kelgan edi.

“be + izofiy birikma” bilan ifodalangan o'rin holi.

...ساکت به آسمان آبی نگاه می کردم. (1:59)

...jim moviy osmonga qarar edim.

به جای تاریک و ساکتی رسیدیم... (1:65)

Qandaydir tinch va qorong'u joyga yetib bordik...

با سرعت به اتاق خواب دویدم و در را قفل کردم. (1:74)

Tezlik bilan yotoqxonaga yugurdim va eshikni qulfladim.

به آهستگی داخل خانه شدیم، مادر شوهرم در را بست و مرا به اتاق میهمان راهنمایی کرد.

(1:160)

Astalik bilan uyga kirdik, qaynonam eshikni qulfladi va meni mehmonxonaga boshladi(yetakladi).

“be + son+ izofiy birikma” bilan ifodalangan o'rin holi

... برای خوردن چای به یک قهوه خانه بزرگ و تمیز رفتند. (4:18)

Choy ichish uchun bir katta va toza qaxvaxonaga borishdi.

“**o`rin ravishi**” birikmasi bilan ifodalangan **o`rin holi**

نمی دانستم این جریان به کجا می کشد. (1:34)

Bu jarayon qayerga olib borishini bilmasdim.

... تا وقتی یکی به اونجا برسه اون خودشو تو خیابان انداخته. (3:1)

... bittasi u yerga yetib borguncha u o`zini ko`chaga tashlaydi.

O`rin holini ifodalab kelganda به old ko`makchisidan keyin egalik affikslari kelishi ham mumkin.

از وقتی شروع به کار کرده بودم خیلی کم بهشان سر می زدم... (1:123)

Ishlashni boshlaganimdan beri ularnikiga juda kam kirardim.

O`rin holi predmet harakatining yo`nalish o`rnini ko`rsatib kelganda asosan “yetib bormoq”, رسیدن *rasidan* “kelmoq”, آمدن *āmadan* “bormoq”, رفتن *raftan* “yetib kelmoq” fe`llari ishlatiladi.

... بعد از تعطیلات، صبح زود به بیمارستان رفتم. (1:44)

...ta`ildan so`ng, erta tongda shifoxonaga bordim.

چند سال قبل با پدر و مادر و نسیم به کیش رفته بودیم. (1:57)

Bir necha yil oldin ota-onam va Nasim bilan Kishga borgan edik.

چرا به باشگاه دانشگاه نیامدی؟ (4:11)

Nega institut klubiga kelmading?

در حدود ساعت ده اتوبوس به شهر کوچکی رسید. (4:18)

Soat chamasi 10da avtobus bir kichik shaharga yetib bordi.

Fors tilida ko`pincha در *dar* va به *be* old ko`makchilarini tushib qolishi holatlari og`zaki nutqning o`ziga xos xususiyatlaridan sanaladi. Bunda o`rin holini ifodalab kelayotgan ot qaysi ma`noda kelganini kontekst orqali aniqlanadi.

راست می گی پزشکی؟ ... کجا؟ تهران یا شهرستان؟ (1:15)

“Rost aytyapsizmi shifokorlik? ...qayerda? Tehrondami yoki Shahrstonda?”

رضا گوشه ای ساکت نشسته بود و زن عمویم با مادرم مشغول صحبت بودند. (1:18)

Rezo bir burchakda jim o`tirgan edi, amakimning ayoli onam bilan suhbatlashdilar.

... تصمیم گرفتم همان خانه جوابش را بدهم. (1:24)

... uyni o`zidayoq javobini berishimga qaror qildim.

بر عکس ما همیشه کسی برای شام و نهار سر سفره مان مهمان بود یا خانه کسی دعوت داشتیم.

(1:48)

Aksincha, biz har doim tushlik va kechki ovqat uchun kimdir dasturxonimizda mehmon bo`lardi yoki kimnidir uyga chaqirardik.

... من خانه شان مهمان بودم ... (1:55)

... men uyligida mehmon bo`lganman ...

به درمانگاه تلفن کردم و به فرید گفتم که خانه مادرم هستم ... (1:127)

Shifoxonaga qo`ng`iroq qildim va Faridga onamning uyida ekanligimni aytdim...

برای فرید هم نگران نباشید سرو مرو گنده خونه است، ... (1:160)

Farid uchun bezovta bo`lmang katta Marv sarvi uyda, ...

فهمیدم که فرید هنوز به آنها خبر نداده که من خانه نیستم. (1:166)

Farid hali ularga men uyda yo`qligimni aytmaganini tushundim.

اون روزها دیگه تمام شده، الحمدالله فرزانه خانم که الان امریکا است، ... (1:175)

U kunlar endi tugadi, alhamdulillah Farzona xonim hozir Amerikada, ...

سه روز بود که خانه مادرشوهرم بودم. (1:178)

Qaynonamni uyida ekanligimga uch kun bo`ldi.

حضرت آقا تهران تشریف می برید؟ (2:197)

Hazrat og`a Tehronga ketyapsizmi?

d) old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

Bunday birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari predmetning chiqish, boshlanish o`rnini ko`rsatib, qayerdan? savoliga javob bo`ladi.

“ot + از” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

-toponimlar bilan:

...لباس عروسی ام را فرناز از فرانسه فرستاده بود که واقعاً زیبا بود. (1:54)

Juda chiroyli bo`lgan to`y ko`ylagimni Farnoz Fransiyadan yuborgan edi.

میزرا برای دو نفر چیده بود و از رستوران فارسی، چند جور غذا گرفته بود. (1:186)

Stolni ikki kishi uchun tayyorlagan va “Forsi restorani”dan, bir necha xil taom olgan edi.

-turdosh otlar bilan:

تشکر کردم و از اتاق بیرون آمدم. (1:45)

Rahmat aytdim va xonadan chiqdim.

...الان از بیمارستان زنگ می زنم... (1:53)

...hozir shifoxonadan qo`ng`iroq qilyapman...

بلند شدم و از آشپزخانه بیرون آمدم. (1:115)

Turdim va oshxonadan tashqariga chiqdim.

ماشین را از پارکینگ در آوردم و با سرعت راه افتادم... (1:158)

Mashinani avto to`xtash joyidan olib chiqdim va tezda yo`lga tushdim...

کتابی را که از کتابخانه بر داشته بودم، باز کردم... (1:177)

Kutubxonadan olgan kitobni ochdim, ...

یک سبد بزرگ گل رز قرمز سفارش داده بودم که سر راه فرید از گلروشی گرفت و راه افتادیم.

(1:195)

Bir katta savat qizil mayda gul buyurtirgan edim, yo`lda Farid gul do`konidan oldi va yo`lga tushdik.

“ravish + از” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

از من نپرس از کجا فهمیدم، فقط حس می کنم تو عوض شدی... (1:34)

Qayerdan tushunganimni mendan so`rama, sen o`zgarganingni faqat his qilyapman...

نمی دانستم از کجا شروع کنم... (1:45)

Qayerdan boshlashimni bilmas edim...

این کلید را از آنجا گرفتم که شما کجا گذاشته اید. (1:217)

Bu kalitni siz qayerga qo`ygan bo`lsangiz o`sha yerdan oldim.

از old ko`makchili birikmalar predmet harakatining yo`nalishini, biror tomonga yo`naltirilgan harakatning nima bo`yab yuz berishini ham anglatib keladi.

از خیابان اصلی بروم؟ (4:22)

Asliy ko`chasi dan yuraymi?

بهتر است از خیابان فرعی بروی. (4:22)

Far'i ko`chasi dan yurganingiz yaxshiroq.

e) **old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi**

تا "old ko`makchili birikma o`rin holini ifodalab kelganda predmet harakati yo`nalishining oxirgi nuqtasini, chegarasini ko`rsatadi, qayergacha? savoliga javob bo`ladi.

"ot + ta" birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

-toponimlar bilan:

تا کیش حرف نزدیم. (1:64)

Kishqacha gaplashmadik.

-turdosh otlar bilan:

تا ایستگاه چند کیلومتر مانده بود، من الهام را دیدم. (1:148)

Bekatgacha bir necha kilometr qolganida, Ilhomni ko`rdim.

"izofiy birikma" bilan ifodalangan o`rin holi

می شه به شاگرد تون بگین اینارو تا در خونه بیاره. (4:71)

Yordamchizga aytsangiz bularni uying eshigigacha olib borib bersa bo`ladimi.

"o`rin ravishi" birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

- می خواهید شمارا تا آنجا برسانیم؟ (1:159)

Sizni u yergacha yetkazishimizni xohlaysizmi?

5) **az...be birikmasi bilan ifodalangan o`rin hollari**

Bunday birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari predmet harakatining boshlanish va tugash nuqtasini bildiradi va qayerdan qayergacha? savoliga javob bo`ladi.

... مادرم و پدرم سالی یک بار از تبریز به تهران می آمدند... (1:170)

Onam va otam yilda bir marta Tabrizdan Tehronga kelishar edi ...

از خانه ی پدر و مادرش تا خانه ی ما تقریباً راه نیم ساعتی بود. (1:126)

Ota-onasining uyidan bizning uyimizgacha taxminan yarim soatlik yo`l edi.

از آن طرف خیابان به این طرف دوید ... (3:1)

... ko`chaning u tarafidan bu tarafiga yugurdi ...

1.1.1.2. Izofiy old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

Hozirgi fors tilida yordamchi so`z turkumlari ichida izofali old ko`makchilar asosiy qismni egallaydi. So`z yasallishining transpozitsiya usuli orqali ot va sifatlardan izofali old ko`makchilar yasaladi. V.S.Rastorguyeva bunday old ko`makchilar birinchi marta o`rta fors tilida yuzaga kelgani va ularning soni faqat 6ta bo`lganligini ta`kidlaydi⁶⁰. Hozirgi kunda izofali old ko`makchilarning soni ortib bormoqda.

Ma`lumki old ko`makchilar relyativ vazifani bajaruvchi yordamchi so`z turkumiga kiradi. Transpozitsiyaning ism→old ko`makchi modeli asosida izofali old ko`makchilar yasaladi. Bunday usul hozirgi kunda ham keng tus olib, fors tilida izofali old ko`makchilarning ko`payishiga sabab bo`lmoqda⁶¹. Ismning ko`makchiga o`tishida “o`tadigan” so`zning semantikasi o`zgaradi. Ayniqsa bu aniq otlardan yasalgan ko`makchilarda ko`rinadi.

Izofali old ko`makchilarning yasallishida ot yoki sifat o`zining asosiy ma`nosini yo`qotib, nisbiy ma`no kasb etadi va o`rin, payt, sabab ma`nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: زیر *zir* “tag”, بالا *bālā* “tepa”, نزدیک *nazdik* “yaqin”, رو *ru* “yuz”, پهلو *pahlu* “yonbosh” so`zlari transpozitsiya usuli orqali “tagida”, “tepasida”, “yaqinida”, “ustida”, “yonida” ma`nolariga ega bo`ladi. L.S.Peysikovning yozishicha, ko`makchi vazifasidagi otlar leksik ma`nolarini yo`qotib, makon, vaqt, sabab va shu kabi munosabatlarni ifodalash uchun grammatik vazifani bajaradilar. Ular mavhum ma`noli yordamchi so`z turkumiga

⁶⁰ Расторгueva В.С. Среднеперсидский язык. - М.,1966. С.128-130.

⁶¹ Рубинчик Ю.А. Ko`rsatilgan asar. С.165.

aylanib, gapda faqat boshqa soʻzlar bilan birga ishlatiladi, yaʼni mustaqil gap boʻlagi vazifasini bajara olmaydi⁶².

Ishimiz davomida oʻrin maʼnosini anglatib keluvchi *توی* *tu-ye*, *جلو* *jelov-e* *روی* *ru-ye*, *پشت* *pošt-e*, *سر* *sar-e*, *پای* *pā-ye*, *دم* *dam-e*, *کنار* *kenār-e*, *پهلوی* *pahlu-ye*, *زیر* *zir-e*, *روبروی* *ruberu-ye*, *بالای* *bālā-ye*, *اطراف* *atrāf-e*, *دور* *dowr-e*, *کنج* *konj-e*, *لای* *lā-ye*, *بین* *beyn-e*, *میان* *miyān-e*, *پیش* *piš-e*, *نزدیک* *nazdik-e*, *وسط* *vasat-e* kabi izofali old koʻmakchilar birikmasi bilan ifodalangan oʻrin hollari ham koʻp uchradi.

a) *توی* *tu-ye* old koʻmakchili birikma bilan ifodalangan oʻrin holi

توی “-da”, “ichida”, “-ga”, “ichiga” old koʻmakchi predmet holati va harakatining yuz berish oʻrnini, predmet harakatining yoʻnalishi maʼnosini bildiradi. Bu koʻmakchi ishtirokidagi tuzilma gapda oʻrin holi vazifasida keladi.

Predmet harakat, holatining yuz berish oʻrnini bildirib kelganda, qayerda? savoliga javob boʻladi, oʻzbek tiliga “-da”, “ichida” deb tarjima qilinadi.

من و نسیم توی اتاق داشتیم شطرنج بازی می کردیم ... (1:17)

Men va Nasim xona ichida shatranj oʻynayotgan edik ...

... توی راهرو به آرش بر خوردم. (1:22)

... yoʻlakda Orashga duch keldim.

ماشین ها یکی یکی توی خیابان ردیف می شدند. (3:2)

Moshinalar birma-bir koʻchada tizilardi.

Predmet harakatining yoʻnalish oʻrnini bildirib kelganda qayerga? savoliga javob boʻladi va oʻzbek tiliga “-ga”, “ichiga” deb tarjima qilinadi.

مادر فرید گوشته را توی اتاق آورد. (1:143)

Faridning onasi goʻshtlarni xonaga olib kirdi.

b) *روی* *ru-ye* old koʻmakchili birikma bilan ifodalangan oʻrin holi.

روی “ustida”, “-da”, “ustiga”, “-ga” old koʻmakchili birikma bilan ifodalangan oʻrin holi predmet harakati yoʻnalishi oʻrnini, predmet holati va harakatining yuz

⁶² Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М., 1959. С.51.

berish o`rnini, predmetning o`rnini bildirib keladi. Izofiy old ko`makchi so`z va so`z birikmalari bilan birikib o`rin holini ifodalaydi.

Predmetning o`rnini, predmet harakati va holatining yuz berish o`rnini bildirib kelganda qayerda? savoliga javob bo`ladi.

Predmet harakati yo`nalishini ifodalagan holatlarda qayerga? savoliga javob bo`lib, quyidagi ko`rinishda keladi.

“ot + روی” birikmasi bilan ifodalangan o`rin hollari.

لیوان چای را روی میز گذاشت و گفت: بفرمایید. (1:35)

Choy stakanini stol ustiga qo`ydi va dedi: Marhamat qiling.

شدتِ ضربه آنقدر زیاد بود که با مبل افتادم روی زمین ... (1:74)

Zarba kuchi shunchalik katta ediki mebel bilan yerga yiqildim ...

پتویشرا چهارلا کرد و روی نیمکت انداخت. (2:197)

Adyolini to`rt bukladi va o`rindiq ustiga tashladi.

“olmosh + ot + روی” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

سر کوچک و بی گناهِش را روی کدام بالش گذاشته است. (1:10)

Begunoh va kichik boshini qaysi yostiqa (ustiga) qo`ygan ekan.

“izofiy birikma + روی” bilan ifodalangan o`rin holi

کفِ زمین روی سرامیک های سفید و سرد نشستم. (1:11)

Yerda, oq va sariq kafellar ustiga o`tirdim.

روزنامه روی میز آشپزخانه است. (1:12)

Gazeta oshxona stoli ustida.

To`plangan misollar tahlili fors tilida o`rin holi روی old ko`makchili birikma bilan ifodalanib kelganda, ko`p hollarda نشست *nešastan* (...da, ...ga) o`tirmoq fe`li bilan ishlatilishini ko`rsatdi.

وقتی وسایلمان را در کمد ها گذاشتیم، خسته روی تخت نشستم و به اطراف نگاه کردم. (1:59)

Yuklarimizni javonga qo`ygach, charchab o`rin ustida o`tirdim va atrofga qaradim.

کف زمین روی سرامیک های سفید و سرد نشستم. (1:11)

Yerda, oq va sariq kafellar ustiga o` tirdim.

d) pošt-e old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

پشت “orqasida(ga)”, “ketida(ga)”, “-da(ga)”, “narigi tarafida(ga)” old ko`makchi bilan ifodalangan o`rin hollari predmet o`rni, harakat-holat yo`nalish o`rmini ko`rsatib keladi va qayerga?, qayerda? savoliga javob bo`ladi.

“ot + پشت” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

مادرم پشت در ایستاده بود. (1:14)

Onam eshik orqasida turgan edilar.

“izofiy birikma + پشت” bilan ifodalangan o`rin holi

- الان پشت در خانه شما تو آسانسور هستم، لطفاً در را باز کنید. (1:160)

-Hozir eshigingiz orqasida liftdaman, iltimos eshikni oching.

از توی آینه فرید را دیدم که پشت سرم می دويد، ... (1:185)

Oynadan Faridni ortimdan yugurib kelayotganini ko`rdim, ...

e) djelov-e “oldiga(da)”, “yoniga (da)” old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin hollari predmetning o`rnini, predmet harakati va holatining yuz berish o`rnini, predmet harakati yo`nalish o`rnini ko`rsatib keladi va qayerda? qayerga? savollariga javob bo`ladi.

“ot + جلوی” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

با خوشحالی جلوی آینه ایستادم. (1:36)

Xursand bo`lib ko`zgu oldida turardim.

نسیم دستم را کشید و جلوی آینه برد. (1:58)

Nasim qo`limdan tortib ko`zgu oldiga olib bordi.

“izofiy birikma + جلوی” bilan ifodalangan o`rin holi

وقتی جلوی در خانه ما رسید، بدون اینکه کلمه ای حرف بزند ماشین را نگه داشت، ... (1:52)

Uyimiz eshigi oldiga yetib kelganda, bir og`iz so`z demay moshinani to`xtatdi,

...

f) سر sar-e old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi

O`rin ma`nosini anglatib kelganda bu old ko`makchi predmet o`rni, harakat, holatning yuz berish o`rni va harakatning biror tomonga yo`nalganligini bildiradi, o`zbek tiliga "...da", "...ga", "boshida (-ga)", "-da", "tepasida (-ga)" deb tarjima qilinadi.

“ot + سر” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

جلو دويد و سر راهم ايستاد. (1:37)

Olg`a yugurdi va yo`limda turib oldi.

يك سبد بزرگ گل رز قرمز سفارش داده بودم كه سر راه فرید از گلروشی گرفت و راه افتادیم.

(1:195)

Bir katta savat qizil mayda gul buyurtirgan edim, yo`lda Farid gul do`konidan oldi va yo`lga tushdik.

او ساعت هفت صبح سر کار می رود. (4:13)

U ertalabki soat yettida ishga jo`naydi.

“izofiy birikma + سر” bilan ifodalangan o`rin holi

سر میز شام غذاهای گوناگون چیده بود. (1:67)

Kechki ovqat stoli ustida turli taomlar qo`yilgandi.

بر عکس ما همیشه کسی برای شام و نهار سر سفره مان مهمان بود یا خانه کسی دعوت داشتیم.

(1:48)

Aksincha biz hamisha tushlik va kechki ovqatga dasturxonimizda mehmon bo`lardi yoki uyga kimnidir chaqirardik.

g) دم dam-e “-da”, “oldida”, “yaqinida” old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi.

Predmet o`rnini, harakatini, holatini yuz berish o`rnini, fe`lning ifodalayotgan ma`nosiga qarab harakatning yo`nalishini ham bildirib kelishi mumkin.

“ot + دم” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

(1:185) سر باز دم در با دیدن من فکر کرد خواب می بیند،...

Qorovul eshik oldida meni ko`rishi bilan tush ko`ryapman deb o`yladi,...

“izofiy birikma + دم” bilan ifodalangan o`rin holi

صبحها دم در خانه مان منتظر می ماند تا من آماده می شوم، ... (1:47)

Ertalablari eshik oldida, men tayyor bo`lgunimcha kutardi.

h) kenar-e “chetida –ga” “yonida -ga” old ko`makchili birikma bilan ifodalangan o`rin holi.

Predmet o`rnini, predmet harakati va holatini yuz berish o`rnini, bildirib keladi.

“ot + کنار” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

پسری که کنار راه ایستاده به من نزدیک شد. (1:160)

Yo`l chetida turgan bola bizga yaqinlashdi.

“olmosh + کنار” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

الهام کنار من ایستاده بود... (1:30)

Ilhom yonimda turgan edi...

“izofiy birikma + کنار” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

کنار در ورودی منتظر فرید ایستاده بودم... (1:51)

Kirish eshigi chetida Faridni kutib turgan edim, ...

“son + ot + کنار” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi

حدوداً نزدیک چالوس بودیم که کنار یک رستوران، فرید ماشین را نگه داشت. (1:54)

Taxminan Chalus yaqinida edik, Farid moshinani bir restoran yonida to`xtatdi.

Yuqorida ko`rsatilgan izofali old ko`makchilardan tashqari yana زیر *zir-e* “tagida(ga)”, روبروی *ruberu-ye* “ro`parasida(ga)”, بالای *bālā-ye* “tepasida(ga)”, اطراف *atrāf-e* “atrofida(ga)”, کنج *kondj-e*, دور *dovr-e* “atrofida -ga”, بین *beyn-e* “o`rtasida(ga)”, میان *miyān-e* “orasida(ga)”, پیش *pish-e* “yonida(ga)”, نزدیک *nazdik-e* “yaqinida(ga)”, پهلو *pahlu-ye* “yonida(ga)”, وسط *vasat-e* “o`rtasida(ga)”, kabi izofali old ko`makchilar birikmasi ham fors tilida o`rin holini ifodalab kelib turli

ma'nolarni, jumladan predmet o'rnini, ish-harakat bajarilish o'rnini, holatning yuz berish o'rnini, predmet harakatining yo'nalish o'rnini kabi ma'nolarni anglatib kelishi aniqlandi.

تصميم داشتم اصلاً پيش ميهمانها نروم ... (1:24)

Aslida mehmonlar oldiga chiqmaslik qarorim bor edi ...

نزدیک در آشپزخانه بودم ... (1:129)

Oshxona eshigi yaqinida edim ...

بنده بلند شدم و دو تا چمدان روی هم وسط کویه جلوی دستِ آقا گذاشتم. (2:201)

Men turib ikkita chamadonni ustma-ust qilib kupening o'rtasiga og'oning yaqiniga qo'ydim.

از پشتِ شیشه های اتوبوس مسافر ها بالای چنار را نگاه می کردند. (3:2)

Avtobusning oynalari ortidan yo'lovchilar chinorning tepasiga qarar edilar.

یکی از سکه ها غلتید و زیر پای مردم گم شد. (3:2)

Tangalardan biri odamlar oyog'i ostiga yumaladi va yo'qoldi.

Fors tilida izofali old ko'makchilar birikmasi o'rin holini ifodalab kelganda, ba'zan izofali old ko'makchilarning izofasi tushib qolib, unga egalik qo'shimchalari qo'shilgan holatlari ham uchraydi Bunday holat asosan og'zaki tilda kuzatiladi. Masalan:

طبق معمولی که نزدیکش بودم، سرم پایین بود. (1:32)

Odatdagidek yonida edim, boshim egik edi.

فرید کنارم نشست، ... (1:60)

Farid yonimga o'tirdi, ...

Bundan tashqari faqat egalik affikslari qo'shilganda emas, balki so'z va so'z birikmalari bilan birikib kelganda ham shunday holat kuzatiladi, bu og'zaki tilning ta'siri ostida yuz beradi.

اونروز دیگه آجراشم جمع میکنن و رو خاک خالی می خوابوننم. (2:81)

O'sha kuni endi g'ishtlarimni terishadi va bo'sh yer ustiga yotqizishadi.

تو یه عمر جلو من دهن واز کرده بودی. (2:81)

Sen bir umr yonimda xizmat qilding.

توی old ko`makchili birikmada izofani tushib qolish holati ko`p kuzatildi.

اما خودمرا کنترل کردم که تو دانشگاه حرفی نزنم، ... (1: 24)

Ammo institutda bir so`z demayman deb o`zimni qo`lga oldim ...

- الان پشت درِ خانه شما تو آسانسور هستم، لطفاً در را باز کنید. (1:160)

-Hozir eshigingiz orqasida liftdaman, iltimos eshikni oching.

فرید تو کوچه کشیک می دهد که تو کی از خانه ما بیرون می آیی. (1:178)

Farid ko`chada, sen qachon uyimizdan chiqasan deb navbatchilik qilyapti.

تو قبر که ایستاد، لبه اش از سرش بلندتر بود. (2:82)

Qabr ichida turganda qirrasi boshida balandroq edi.

... تا وقتی یکی به اونجا برسه اون خودشو تو خیابان انداخته. (3:2)

... bittasi u yerga yetib borguncha u o`zini ko`chaga tashlaydi.

1.1.1.3. “Asosiy old ko`makchi + izofali old ko`makchi + ot” birkmasi bilan ifodalangan o`rin holi

Ba`zi hollarda, izofali old ko`makchilar oldidan o`rin ma`nosini yanada aniq ko`rsatish uchun asosiy old ko`makchilar ham ishlatiladi. Asosiy old ko`makchi + izofali old ko`makchili birikmalardan so`ng ot, olmosh va egalik affikslari, izofiy birikmalar kelishi aniqlandi. Ularni quyida kelajak misollar orqali ko`rish mumkin bo`ladi.

Bunday birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari predmet harakatining bajarilish o`rni, yo`nalishini, biror tomonga yo`naltirilgan harakatning nima bo`ylab yuz berishini bildiradi.

“be + taraf-e + ot” birikmasi bilan:

به طرفِ هال نگاه کردم. (1:74)

Zal tarafga qaradim.

“be + taraf-e + izofiy birikma” bilan:

ظرفهای صبحانه را شستم و به طرفِ خانه مادرم راه افتادم. (1:123)

Nonushta idishlarini yuvdim va oyimning uylari tomon yo`lga tushdim.

“be + samt-e +ot” birikmasi bilan:

به سمتِ اتاق رفتم. (1:44)

Xona tomonga yurdim.

“be + samt-e + egalik qo`shimchasi” bilan:

با ناتوانی دستم را به سمتش دراز کردم. (1:10)

Zo`rg`a qo`limni uning tarafiga uzatdim.

“āz+ izofiy old ko`makchi (kenar-e, pošt-e, djelov-e, pāhlu-ye, ru-ye, miyān-e, bālā-ye, tah-e)+ ot” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi. Bunday birikma bilan ifodalangan o`rin hollari, o`rin holini yana ham aniqroq qilib ko`rsatishga xizmat qiladi. Semantik jihatidan turlicha bo`lib, predmet o`rni, ish-harakatning bajarilish o`rni va holati, ish harakatning nima bo`ylab yuz berishini, yo`nalishini bildiradi.

آهسته از روی زمین بلند شدم. (1:74)

Sekin yer(dan) ustidan turdim.

از پشت شیشه های اتوبوس مسافرها بالای چنار را نگاه می کردند. (3:1)

Avtobusning oynalari ortidan yo`lovchilar chinor tepasiga qarar edilar.

پاسبانی از میان مردم سر در آورد ... (3:1)

Bir posbon odamlar orasidan chiqdi ...

صدای مرد از بالای درخت مثل صدایی که از ته چاه به گوش برسد توی گوش مردم زنگ زد.

(3:2)

Kishining ovozi daraxt ustidan huddi o`ra qaridan quloqqa eshitiladigan ovozdek odamlar qulog`ida jarangladi.

از پشت جمهیت صدای روزنامه فروشی در فضا پخش شد. (3:2)

Jamiyat ortidan gazeta sotuvchining ovozi fazoda yangradi.

“ta + izofali old ko`makchi + ot” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi.

Bunday birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari predmet harakatining yo`nalishini, biror tomonga yo`naltirilgan harakatning nima bo`ylab yuz berishini bildiradi.

عمو و پسر عمویم تا دم در دنبالش آمدند، ... (1:45)

Amakim va amakimning o`g`li eshik oldigacha ortidan chiqishdi, ...

**“dar+ beyn-e (taraf-e, miyān-e, kenār-e)+ ot” birikmasi bilan ifodalangan o`rin holi.** Predmet o`rni, harakat, holatning yuz berish o`rni, yo`nalishini bildiradi.

روزهای بعد، در کنار دکتر افتخار فکر می کردم ... (1:30)

Keyingi kunlari, shifokor Iftixor yonida o`yladim ...

در طولِ راه، یاد روزهایی افتادم که آرام و شاد پیشِ پدر و مادرم زندگی می کردم. (1:75)

Yo`l davomida, ota-onam oldida yashagan tinch va shod kunlarimni esladim.

چند پاسبان از راه رسیدند و در میان مردم ولو شدند. (3:1)

Bir nechta posbon yetib keldi va odamlar orasida bo`ldilar.

در طرف دیگر جمعیت جوان چهارشانه ای که سیگار دود می کرد. (3:2)

Jamiyatning narigi tarafida to`rtburchak yuzli bola tamaki chekardi.

1.1.2. Ravishlar bilan ifodalangan o`rin hollari.

O`zbek tilida ravishlar fe`l bilan ifodalangan harakat yoki holatning belgisini bildirib keladigan grammatik kategoriya bo`lib, shu harakat yoki holatning bajarilish jarayoni, vaziyati, o`rni, payti kabi munosabatlarni anglatib keladi⁶³.

Eron tilshunoslari o`rin ravishlariga (مکان قید *veyd-e mākan*) quyidagi ravishlarni kiritadilar: چپ *forud* “pastda”, پائین *pāin* “pastda”, بالا *bālā* “tepada”, چپ *chap* “chap tarafda”, پس *pas* “orqada”, پیش *piš* “oldinda”, راست *rāst* “o`ng tarafda”, اینجا *indjā* “bu yerda”, آنجا *āndjā* “u yerda”, بیرون *birun* “ichkarida”, درون *darun* “ichkarida”, همه جا *hame djā* “hamma joyda”, هر جا *har djā* “har yerda”, “tashqarida”⁶⁴.

O`rin ravishlari o`rin holi vazifasida kelib, ish-harakatining bajarilish o`rni, holatning yuz berish o`rni va predmetning o`rni, predmet harakatining yo`nalish o`rni bildiradi. Buni kesimdan anglash mumkin bo`ladi.

نمی دانم کجاست، آخرین بار همین جا گذاشتم. (1:174)

Bilmayman qayerda, oxirgi marta shu yerga qo`ydim.

نمی دانستم کجا می خواهیم برویم، ... (1:65)

Qayerga bormoqchiligimizni bilmas edim ...

⁶³Фузаилов С. Ўзбек тилида равишлар. - Т., 1953. Б.3.

⁶⁴دستور زبان فارسی. پنج استاد. تهران. ۱۳۷۳. ص. ۱۸۹-۱۹۰.

آهسته گفتم: آره، کجا بودی؟ (1:37)

Sekin aytdim: Ha, qayerda eding?

اینجا نزدیک بیمارستان یک رستوران هست که غذایش بد نیست، ... (1:30)

Bu yerda shifoxona yaqinida taomlari yomon bo`lmagan bir restoran bor, ...

هر جا می رفتم بود چنان نگاههای سوزناکی به من می انداخت ... (1:23)

Har yerga bormay, shunday o`tli nigohlar menga tushardi ...

امیدوارم صبا هر جایی هست دیگه بر نگرده ... (1:180)

Sabo har qanday joyda ekanligiga, boshqa qaytib kelmasligiga umid qilaman...

همه جا دنبالش گشتم، ... در (1:179)

Hamma yerda izladim ...

اما مردم هیچ نگفتند فقط بالا را نگاه می کردند. (3:1)

Ammo odamlar hech narsa deyishmasdi, faqat tepaga qarar edilar.

من اینجا سرت را ببرم و بروم، کسی خبر نمی شود. (1:65)

Men bu yerda boshingni olsam- u ketsam, hech kim bilmaydi.

این جور آدمها در محل کار و بیرون از خانه خوش سر و زبان هستند ... (1:42)

Bu xil odamlar ish payti va uydan tashqarida odobli va shirin so`zdirlar ...

حالا کجا بروم؟ (1:185)

Hozir qayerga boraman?

صبا جان تویی؟ چی شده؟ الان کجایی؟ (1:160)

Sabo senmisan? Nima bo`ldi? Hozir qayerdasan?

وقتی خوب ترسد و تنها ماند آن وقت بهش می گیم که صبا اینجا ست ... (1:168)

Yaxshilab qo`rqan va tanho qolganda o`sha payt Sabo bu yerda ekanligini aytamiz ...

1.1.3. Fors tilida o`rin holini ifodalanishida inversiya hodisasi

Fors tilida gapning ikkinchi darajali bo`laklarini ajratish ularning qaysi so`z turkumi bilan ifodalanganligi va gapning qaysi bo`lagiga tegishli ekanligiga qarab turli grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ajratib ko`rsatish uchun eng ko`p qo`llanadigan usul gap bo`laklarining odatiy o`rinlaridan qo`zg`atib

boshqa joyga olishdir. Masalan, ifodalanayotgan ma'nolarni ta'kidlab ko'rsatish uchun vositali to'ldiruvchilar, o'rin hollari va holning ba'zi boshqa turlari fe'l kesimdan so'ng qo'yilishi ham mumkin. Bu uslub "inversiya" atamasi bilan nomlanadi va ko'proq og'zaki til xususiyati hisoblansa-da, badiiy adabiyotda ham keng qo'llanadi⁶⁵. To'plangan misollarda inversiya hodisasi yuz berganda old ko'makchilar tushib qolishi kuzatildi:

دور از تو، دور از همه، رفته بودم شمال... (1:37)

Sendan uzoqqa, hammadan uzoqqa, shimolga borgan edim.

... ببخشید مزاحمتان شدم، داشتید می رفتید خانه؟ (1:44)

...kechirasiz sizni bezovta qildim, uyga ketmoqchimisiz?

بدو برو حمام، یکی دو ساعت دیگه فرید می آید دنبالت بری آرایشگاه. (1:57)

Yugur hammomga bor, 1-2 soatdan keyin Farid senga keladi, sartaroshxonaga bor.

طرفهای غروب، رضا پسر عمویم آمد خانه مان، ... (1:127)

Kun botar paytlari, amakimning o'g'li Rezo uyimizga keldi, ...

یکهو فرید پرید طرفم، چشماش به حالت غیر طبیعی گشاد شده بود، داد کشید، ... (1:157)

Birdan Farid men tarafga tashlandi, ko'zlari g'ayri tabi'y holatda ochilgan edi, baqirdi, ...

... اگر می فهمیدند دیگر نمی گذاشتند بر گردم خانه، ... (1:162)

...agar tushunganlarida boshqa uyga qaytishimga qo'yishmasdi, ...

می خوام بریم رستوران شام بخوریم؟ (1:184)

Restoranga borib kechki taom yeyishimizni xohlaysanmi?

وقتی رسیدیم خانه، من در سکوت لباسهایم را عوض کردم... (1:185)

Uyga yetib borgan vaqt, men jimgina kiyimlarimni almashtirdim...

من تا حالا فرصت نکرده بودم پیام مطببت، ... (1:189)

Men hozirgacha shifoxonanga kelishga vaqtim bo'lmagandi, ...

1.1.4. Frazologik birikmalar bilan ifodalangan o'rin hollari.

⁶⁵ Ahmedova D.R., Nuriddinov N.N. Asosiy o'rganilayotgan til (fors-tili) fanidan o'quv uslubiy majmua. - T., 2014. B.73.

YU.A.Rubinchikning fors tili grammatikasiga oid asarida o`rin hollarini ifodalashida ismiy va turg`un birikmalar bilan ifodalangan ravishlar (az dur “uzoqdan”, az nazdik “yaqindan”, az dur o nazdik “uzoq yaqindan”) kelishi mumkin.⁶⁶

To`plangan misollarimizda ham shunday frazeologik birikmalar bilan ifodalangan o`rin hollari kuzatildi.

باشنیدن اسممرا از پشت سر، ساکت شدم و آهسته بر گشتم. (1:30)

Ismimni orqadan eshitishim bilan, jim bo`lib qoldim va sekin qaytdim.

از دور به او خیره شدم واقعاً مرد جذاب و زیبایی بود. (1:96)

Uzoqdan unga tikilardim, juda chiroyli va ko`rkam bir kishi edi.

1.1.2. Distant holatdagi fe'llarga izofa yordamida birikkan o`rin hollari

Fors tilida o`rin hollari distant holatdagi qo`shma fe'llarga izofa orqali birikib kelgan holatlari ham mavjud. Distant holatdagi fe'llar haqida YU.A.Rubinchik o`zining asarida bunday qurilish ramkali qurilma nomi bilan atalishini keltirib o`tgan⁶⁷.

“Ramochnaya konstruksiya” termini distant holatida kelgan sintaktik birliklarni ifodalash uchun ishlatilgan nemis tili grammatikasiga oid kitoblardan olingan.⁶⁸

Distant holatida kelgan fe'llarda ot qism va fe'l qism orasiga gapning boshqa bo`laklari kiradi va ular qo`shma fe'lning ot qismiga izofa orqali bog`lanadi: او وارد. Distant holatida kelishi mumkin bo`lgan fe'llar u qadar ko`p emas.: سوار شدن “chiqmoq”, “minmoq”, داخل شدن “kirmoq”, منتظر بودن “kutmoq”, دچار شدن “duchor bo`lmoq”, “yo`liqmoq”, بیرون رفتن “(tashqariga)chiqmoq”, مشغول بودن “mashg`ul bo`lmoq”, “shug`ullanmoq”, “band bo`lmoq”, دارا بودن “ega bo`lmoq”, “bor bo`lmoq”<sup>69</sup>. Distant holatidagi fe'llarga birikib kelgan quyidagi o`rin hollari aniqlandi:

⁶⁶ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.472.

⁶⁷ Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. Наука. – М., 1981. С.173-174.

⁶⁸ www.ziyo.uz Tilshunoslik asoslari. Ramkali qurilma

⁶⁹ Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili: Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. – T.: Musiqa, 2006. B.122-123.

dāxel shodan, vāred shodan, “kirmoq” *birun raftan* “chiqmoq” fe’llari, ham kontakt va ham distant holatda ishlatiladigan fe’llar bo‘lib, ularga o‘rin holi birikib kelish imkoniga ega. Bu o‘rin hollari ish-harakatining yo‘nalganlik o‘rnini ko‘rsatadi.

مادرم که زودتر از من وارد آشپزخانه شده بود، ... (1:15)

Mendan tezroq oyim oshxonaga kirgan edilar, ...

پشتِ سر مادرم بیرون خانه شدم. (1:124)

Oyimni ketidan uydan chiqdim.

به آهستگی داخل خانه شدم، مادر شوهرم در را بست و مرا به اتاق میهمان راهنمایی کرد.

(1:160)

Ohistalik bilan uyga kirdik, qaynonam eshikni yopdi va meni mehmonxonaga boshladi.

IKKINCHI BOB

FORS TILIDA PAYT HOLINING STUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI

Zamon tushunchasi kesimdan anglashiladi, kesimning grammatik formasi zamonni ko'rsatadi. Kesimdan anglashilgan zamon tushunchasi nutq momenti bilan o'lchanib, umumiylik xususiyatiga ega. Payt holi vaqtni ko'rsatadi. Payt holidan anglashilgan vaqt tushunchasi voqelik hamda nutq momenti bilan bog'liqdir. Masalan: *Eratlab keldim. Hozir keldim. Ertalab keldim* gapidagi ertalab payt holi voqelikni bildiradi, harakat kunning boshlanish qismida sodir bo'lganligini anglatadi. Hozir keldim gapidagi hozir payt holi esa nutq momenti bilan bog'liq. Hozir payt holi harakatning nutq momentiga yaqin vaqtda sodir bo'lganligini yoki sodir bo'lishini ko'rsatadi. Hozir singari so'zlar bilan ifodalangan payt holi orqali butun bir davrni ifodalash ham mumkin. Qishlog'imiz hozir tanib bo'lmaslik darajada kengayib, obod bo'ldi.

Payt holi tabiiy voqelik bilan nutq momenti iblan bog'liqligidan qat'iy nazar kesimdan anglashilgan zamon tushunchasini to'ldirish, konkretlashtirish uchun xizmat qiladi: *Kecha keldi. Bugun keldi. Sizdan oldin keldi. Mendan keyin keldi. Hozir keldi. Endi keldi.*

Payt holi zamon ma'nosiga aniqlik kiritishda bir xil xususiyatga ega emas. Ulardan ba'zilar har uchala zamon ma'nosiga ham aniqlik kiritadi. Chunonchi: *Har kun bordi. Har kun borayotir. Har kun borar. Endi keldi. Endi kelayotir. Endi keladi.* Ba'zi payt hollari muvofiqlashuvni talab qiladi. Masalan, *bultur, o'tgan yil, kecha* kabi so'zlar bilan ifodalangan payt holi kelasi zamon ma'nosiga aniqlik kiritadi. Hozirgi zamon markaziy nuqta hisoblanadi. U o'tgan va kelasi zamondek, paytga bog'liq ma'nolarni o'z ichiga olmaydi. O'tgan yoki kelasi zamon ma'nosiga aniqlik kiritmasdan faqat hozirgi zamon ma'nosiga aniqlik kirituvchi payt hollari uchramaydi.

Payt holi ham boshqa hol turlari kabi turli ko'rinishlarda bo'lib, voqelikni aks ettirishiga ko'ra bir necha payt ma'nolarni anglatib keladi:

1. Harakat-holat, voqeaning yuz berish payti;
2. Harakat-holatning boshlanish payti;

3. Payt chegarasi;
4. Vaqt oralig'i, ya'ni harakat-holatning boshlanish va tugash payti;
5. Harakat-holatning biror boshqa harakatdan, voqeadan oldin bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rsatadi;
6. Harakat-holatning biror boshqa harakat-holatdan, voqeadan keyin bo'lgan bo'lmaganligini ko'rsatadi;
7. Payt holi va kesim ifoda etgan harakatning bir vaqtda yuz berishini ko'rsatadi;
8. Voqeaning tez orada yuz berishini ko'rsatadi;
9. Voqeaning siyrak yuz berishini ko'rsatadi;
10. Voqealarning hamma vaqt sodir bo'lishi, takrorlanishi va uzoq vaqt davom etishini ko'rsatadi.⁷⁰

Sintaktik o'rganish ob'ekti sifatida payt hollari murakkabligi va turli xilligi bilan ajralib turadi.

Payt holini alohida o'rganish hozirgacha ikki bosqichda amalga oshirilgan desak bo'ladi. Birinchi bosqichda payt hollarini ularning ifodalanish shakli bilan grammatik belgilari hamjihatligi asosida sistemalashtirilgan. Ikkinchi bosqichda payt hollarining semantik talqini amalga oshirildi. Bu bosqichda datirovkalar uch zamonda ifodalanishi sistemasi ishlab chiqilgan.

Payt holining semantik ifodalanshida 3 zamondan tashqari 3 xil vaqt mo'ljal haqida ham gapirib o'tishimiz kerak. 1. Kalendar xisobi bilan bog'liq, payt oralig'i (shanbada, 6gacha); 2. Mo'ljal sifatida suhbatdoshga tanish bo'lgan bir voqea, hodisa kelishi mumkin. (urush vaqtida, suhbatgacha, chaqmoqdan keyin); 3. Vaqt orientiri sifatida, oldingi kontekstda gapirib o'tilgan voqea, moment. (keying kuni, keying yili, bundan ikki kun burun, hozir).⁷¹

⁷⁰ Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси . - Т.: Фан, 1971. Б.28-31.

⁷¹Першина Л.Р. Состав обстоятельств времени и их функционирование в повествовательном тексте. – М., 1985.

Potaenko Nikolay Aleksandrovich⁷² til sistemasining semantik leksikasida payt kategoriyasi va uning ifodalanishiga bag'ishlangan ishida shunday deb yozadi:

Tabiiy inson tili, materiya harakatining ijtimoiy shakli mavjudligining mahsuli va shartlaridan biri bo'la turib, o'zining fazo-vaqt xususiyatlariga egadir.

Bundan vaqt muammosiga bag'ishlangan lingvistik tadqiqotlarda tildagi vaqtni hamda vaqtdagi tilni ko'rib chiqadigan jihatlarining ajratilishi kelib chiqadi.

Vaqt tushunchasini ifodalash bilan bog'liq bo'lgan til vositalarining mavjudligi bir qator omillar bilan belgilangan. Bu yerda insonning borliqning vaqt tarkibini o'zlashtirishi natijalarini leksikada mustahkamlash haqida gap ketmoqda. uning boshqa omili o'zining borliqning chvaqt tarkibini tushunishini tegishli til vositalari bilan orqali adekvat holda bera olish ehtiyoji bo'ladi.

Vaqt tushunchasini ifodalaydigan leksikaning bir qator xususiyatlari (ishda uning "temporal leksika" degan nomi qabul qilingan) uni bir qator masalalarniyoritishni talab etuvchi o'ziga xos tadqiqot ob'ektiga aylantiradi, ya'ni bular: vaqt tushunchasini ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositalari tizimida leksik birliklarning o'rnini belgilash; temporal leksikaning tildan tashqari olam bilan bog'liqligining turi, bu yerda vaqt (fazo bilan birgalikda) materiyaning mavjudlik shaklidan iborat bo'ladi; vaqt kategoriyasi insonnig bilish faoliyatida tutadigan muhim o'rnini hisobga olish, shuningdek vaqt tadqiq etiladigan boshqa fanlar ma'lumotlarini hisobga olish zaruriyati kabilardir.

Temporal leksikaning vaqt tushunchasinin ifodalashning boshqa til vositalari tizimidagi o'rnini belgilashda turli darajalardagi til birliklarinin ajratish va ularning keyinchalik o'rganilishi haqida gap ketadi. Masaldan, morfologiya darajasida fe'llarning, sifatdoshlar, ravishdoshlarning vaqt shakllari, shuningdek til turiga qarab boshqa so'zlar turkumlarining shakllari tahlil qilinadi. Leksika darajasida tadqiqot sohasiga har xil turkumlarga tegishli bo'lgan temporal leksika kiritiladi:

⁷² Потаенко Н.А. Категория времени и ее выражение в лексике семантической системе языка: Автореферат. - М., 1981.

otlar, sifatlar, fe'llar, ravishlar va h. Vaqt tushunchasini ifodalash shuningdek gap darajasida va matn darajasida tadqiq etiladi.

Temporal leksikani o'rganishga turli yondashuvlar qarab chiqiladi. temporal leksik hol vaqt guruhi tarkibida ko'rib chiqiladigan ishlar eng ko'p ekanligi qayd etiladi.

Til rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida gap tarkiibdagi temporal leksika vazifalarni tahlil etish vaqt tushunchasini ifodalash bilan bog'liq bo'lgan so'z turkumlarining shakllanishi jarayonini kuzatishga imkon beradi, bu ayniqsa qiziqarlidir, chunki bu holda insonning borliqning o'ziga xos shakllaridan birini aks ettirishining qonuniyatlarini o'rganish, bilish haqida gap ketadi.

Turli tillar leksikasini tahlil etish til guruhlariga xos bo'lgan semantik universal holatlarnin aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga cheklangan kattaligi bo'lgan "vaqt" leksik-semantik guruhlar, mavzusi qatorlari, semantik maydonlari tarkibidagi leksikani o'rganish bu guruhning har bir leksik birligining mazmun jihatining tashkil etilishini puxta tahlil etishga imkon beradi, shuningdek ko'rib chiqilayotgan guruhning tarkibiy tuzilishini aniqlash imkoniyatini beradi, bu esa tilning butun leksik tarkibi tashkil etilishining tamoyillarini yoritadi.

Vaqt xususidagi bilish faoliyati so'zlarning mazmunida qanday aks ettirilganligiga qarab umumiy qatlamda so'zlarning to'rtta guruhi ajratiladi.

Birinchi guruhga vaqtni real ob'ekt sifatida ifodalaydigan so'zlar kiradi (uzoqligi, uzoq davom etish nuqtalari). Bu uzoqliklarning idrok etilishi va tanib olininshi borliq hollatlarining xos xususiyatlari orqali amalga oshiriladi, masalan, "kun", "mavsum", "yil", "yosh", "davr", "bolalik" va h. Bu uzoqliklarning chegaralari tabiiy mo'ljallarga (quyoshning samodagi holati, tabiatning holati, organizmning turli holatlari) va sun'iy mo'ljallar (taqvim sanalari, siferblatdagi millar holati) bo'yicha belgilanadi. Bu guruh "Substantivatorlar guruhi" deb nomlanadi.

Ikkinchi guruhda "vaqtga tegishlilik", shuningdek "vaqtda tegishlilik" ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar mujassamlashtirilgan. Bu guruh so'zlarining ma'nolarida borliq holatlari nutq vaqti bilan yoki biror hodisaning yuzaga kelish

vaqti bilan vaqt aloqalariga kirishgan holda ushbu vaqt aloqalari aks ettirilgan, masalan, “qachondir”, “kecha”, “bo`lg`usi”. Bu guruh so`zlarining ma`nolari borliq holatlari muayyan yuz beradigan va ishora qilinadigan vaqt davomiyligining mavjudligini ko`zda tutadi. Bu guruh “Korrelyatorlar guruhi” degan nom olgan. Bu guruhga shuningdek ma`nolari borliq holatlari va nutq paytiga yoki boshqa vaqtga nisbiy bo`lmagan turli belgilarga ko`ra ajratilgan vaqt oraliqlari o`rtasidagi aloqalarni aks ettiruvchi so`zlar kiradi. Bu holda vaqt oraliqlari borliqning holatlari va jarayonlari proeksiyalanadigan fon bo`lib xizmat qiladi va shu bilan tegishlicha vaqt tavsiflari hosil bo`ladi, masalan, “tunda sodir bo`layotgan, tungi”, “yakshanba kunidagi, yakshanbalik”.

Uchinchi guruhga ma`nolari borliq holatlariga ichki xos bo`lgan belgilarini aniqlaydigan va shu bilan ushbu holatlarni uzoqlik, vaqtda davom etishi jihatidan sifat tarzida ta`riflaydigan so`zlar kiradi, masalan, “bir on davom etuvchi”, “bir kunlik, qisqa muddatli”.

Uchta yuqoridagi guruhlar bilan birgalikda yana bir so`zlar guruhi aniqlandi, ularning ma`nosi (bizning ta`rifimizga muvofiq) temporal bo`lmaydi, lekin uning tarkibiga temporal element zarur qismi sifatida kiradi va usiz ko`rib chiqiladigan holatning eksplikatsiyasi mumkin bo`lmaydi, masalan, “tezlik”, “tez tez uchraydigan”, “sekinlik” va boshqa ko`pgina so`zlar. Bu guruh “Implikatorlar guruhi” degan nom olgan.

Subsantivatorlar guruhidagi so`zlar boshqa guruh so`zlarini talqin etishda asosiy ahamiyatga ega. Shu munosabatda avval ushbu guruh, keyin esa qolgan ajratilgan guruhlar tahlili qilinadi.

Substantivatorlar guruhi. Definisiyalarni tahlil qilinishida bu guruh so`zlari har xil turdagi uzunliklarni belgilaydi, ular ma`lum borliq holatlari va ushbu holatlar bir biriga kirishgan munosabatlar zahirida ajratiladi.

Uzunliklarni ajratish zahirida qaysi elementlar lug`at definisiyalarida ko`rsatilishiga qarab, ushbu guruh ichida quyidagi ma`noli kichik so`z guruhlari ajratiladi: 1) sutka ichidagi vaqt oraliqlari, ushbu oraliqlar ichidagi nuqtalar, quyoshning samodagi harakati va quyosh yoritishi bilan tavsiflanadi; 2) oy

harakatiga ko`ra ajratiladigan oraliqlar; 3) quyoshning harakatiga ko`ra va tabiatning holatiga ko`ra belgilanadigan oraliqlar; 4) insonning yashagan vaqti; 5) insonning faoliyati bilan bog`liq bo`lgan vaqt; 6) taqvim bilan ajratiladigan vaqt oraliqlari; 7) sifat jihatidan noaniq vaqt oraliqlari; 8) biror hodisalarning yuz berish vaqtiga nisbatan joylashuviga ko`ra ajratiladigan vaqt oraliqlari, vaqtdagi nuqtalar.

Masalan, “kun”, “ertalab”, “peshin”, “kechqurun”, “kechasi, tun”, “yarim kecha” va boshqa so`zlar kiradigan birinchi kichik guruh so`zlari ma`nolarini aniqlashda kuzatiladigan tabiat hodisalari: quyosh chiqishi va botishi, quyosh yorug`ligining bor yo`qligi bo`yicha tanib olinadigan nominatsiya ob`ekti ajratiladi.

Ikkinchi kichik guruhda bundan kuzatiladigan mo`ljallar oy fazalari bo`ladi: yoy shaklidagi yangi oy, hilol, doira shaklidagi to`lin oy (“qamar oyi”, “epakt” va boshqalar).

Uchinchi kichik guruhda quyosh harakatining qonuniyatlari, kun va tun uzunligi, quyosh issiqligining miqdori va ashunga bog`liq tabiatda sodir bo`ladigan o`zgarishlarga ishora qilinadi: “yoz”, “yil fasli”, “yil” va h.k.z.

“Bolalik”, “o`smirlik”, “yoshlik”, “etuklik”, “yosh”, “umr vaqti” va boshqa so`zlar kiradigan to`rtinchi kichik guruhda hayotning turli davrlarini ajratib ko`rsatish uchun quyidagilar mo`ljall bo`ladi: tug`ilish, jinsiy balog`at, jismonan yetuklik.

Beshinchi kichik guruhda definisiyalar vaqt oraliqlari inson faoliyati sohasiga tortilgan jarayonlarda o`xshashlikni aniqlash asosida ajratilishini anglatadi. Shu kichik guruhda ikki mikroguruh ajratiladi, bunda ushbu ajralish so`zlar ma`nolari vaqt oraliqlariga ishoradan tashqari shuningdek: 1) ular davomida sodir bo`layotgan jarayonlar, ulardan ma`lum faoliyat uchun foydalanishga ishora qilish, masalan “keyinga qoldirish”, “sinov muddati”, “mavjudlik muddati”, “besh yilik”, “terim payti”, “homiladorlik muddati” va boshqalar, yoki aksincha 2) faoliyat yo`qligiga ishora qilish, masalan: “tanaffus”, “dam olish vaqti”, “ta`til payti”, “o`yindagi tanaffus” ma`nosini o`z ichiga olishiga bog`liq bo`ladi.

Oltinchi kichik guruh soʻzlarining definisiyalari ularning taqvim tizimining birliklari bilan oʻzaro bogʻlanishini koʻrsatadi: oy, hafta kunlari, bayramlarning nomlari.

Yettinchi kichik guruh soʻzlarining definisiyalari soʻzlarning biror sifat belgilari bilan ajratilmay, oʻzining miqdoriy xususiyatlari bilan farqlanadigan vaqt oraliqlari bilan oʻzaro bogʻliqlikni aniqlaydi. Bu soʻzlar maʼlum ierarxiyaga kiruvchi va oʻlchov birliklarining tizimini tashkil etuvchi vaqt oraliqlarini (masalan, “soniya”, “daqqa”, “soat” va h.) yoki nisbiy miqdoriy xususiyatlari boʻlgan vaqt oraliqlarini (masalan, “abadiyat”, yaʼni cheklanmagan vaqt oraligʻi va “on”, yaʼni arziyasiz vaqt oraligʻini) anglatishiga qarab ikki mikro guruhlariga boʻlinadi.

Va oxiri, sakkizinchi kichik guruh soʻzlarining definisiyalaridan vaqt oraliqlari maʼlum hodisalarning paytiga nisbatan holati asosida ajratilishi kelib chiqadi, shu munosabatda kichik guruh ichida quyidagi munosabatlarda boʻlgan soʻzlarni anglatuvchi soʻzlar mikroguruhlariga ajratiladi: a) oldin kelish “oʻtmish”, “arafa”, “urushdan oldingi davr”; b) bir vaqtda sodir boʻlish “hozirgi vaqt”, “bugungi kun”; v) keyin kelish “kelajak”, “tushlikdan keyingi vaqt”, “asal oyi”; g) ikki hodisa oʻrtasidagi kelish “oraliq”, “ikki urush orasi davri”; d) biror jarayon ichida yuz beradigan vaqt oraligʻi “boshlanishi”, “oʻrtasi”, “tamomlanishi”⁷³.

2.1. Fors tilida payt holining ifodalanishi

Payt holi boshqa tillardagi kabi fors tilida ham eng koʻp ishlatiladigan ikkinchi darajali boʻlaklardan hisoblanadi. Payt holi harakat yoki holatning sodir boʻlish paytini koʻrsatib, qachon?, qachondan beri?, qachondan boshlab?, qachongacha?, qachondan-qachongacha? kabi soʻroqlariga javob boʻladi⁷⁴.

Payt holining fors tilida ifodalanishini YU.A.Rubinchik quyidagicha beradi: “Payt hollari harakat sodir boʻladigan vaqtni anglatadi va payt ravishlari, old koʻmakchili yoki koʻmakchisiz ot, paytni bildiruvchi ot yoki old koʻmakchilar

⁷³Потаенко Н.А. Категория времени и ее выражение в лексике семантической системе языка: Автореферат. - М., 1981.

⁷⁴Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. - Т.: Фан, 1971. В.28.

bilan birga kelgan fe'lining noaniq shakli, miqdor son+ot birikmasi, payt ma'nosini anglatuvchi turg'un birikmalar bilan ifodalanadi"⁷⁵.

Payt hollari vaqt chegarasini ifodalashi yoki ifodalamasligi mumkinligini qayd etib, bu jihatdan ular harakatning aniq vaqt chegarasini ifoda etmaydigan hol (*روزهای تعطیل بیرون شهر می رویم Ta'til kunlari shahar tashqarisiga chiqamiz*) va harakatning vaqt chegarasini ifoda etadigan holga ajratadi (misol uchun: *پس از بر Vatanga qaytgandan so'ng yozuvchi yana uchta kitob yozdi.*)⁷⁶ deb ta'kidlaydi.

2.1.1. Ravishlar bilan ifodalangan payt holi.

Payt holi payt ravishlari bilan ifodalanadi. Payt ravishlari ish harakat bajarilish paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so'roqlariga javob bo'ladi⁷⁷.

Ish davomida ko'pincha payt ravishi bilan payt va muddat otlari chalkashtirib, bir biriga aralashtirib yuborilish hollari uchrashi mumkinligi aniqlandi. O'zbek tilida Fuzailov *ertalab, tongda, tunda* kabi so'zlarni payt ravishi deb bergan bo'lsa⁷⁸, F.Ubayeva bu so'zlarni sutkaning bir qismining nomini ifodalab keluvchi ot deydi⁷⁹. D.S.Semigulova o'zining avtoreferatida *azonda, tunda, kechasi, kunduz* so'zlarini payt ravishi bilan ifodalangan payt hollari deydi⁸⁰.

Eron olimlaridan Anvari Givi "*Dastur-e zabān-e fārsi*" kitobida payt ravishlariga quyidagi so'zlarni kiritgan: *ruz, šab, sobh, 'asr, zohr, emruz, emšab, diruz, fardā, emsāl, pārsāl, sāl-e āyande, gāhi, peyvaste, benodrat, nāgāh, čand daqiqa, ruzhā-ye ba'd, sāl-e qahati*⁸¹.

⁷⁵ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.472.

⁷⁶ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001. С.472.

⁷⁷ Фузаилов С. Ўзбек тилида равишлар. - Т., 1953. В.12.

⁷⁸ Фузаилов С. Ко'rsatilgan asar. В.12.

⁷⁹ Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси. - Т.: Фан, 1971. Б.71.

⁸⁰ Семигулова Д.С. Обстоятельства места и времени в современном узбекском языке: Автореферат. - Т., 1961. С.15.

⁸¹ دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. ویرایش دوم. - تهران، ۱۳۷۴. ص ۶۷.

Boshqa grammatikada esa payt ravishlariga quyidagilar kiritilgan: *peyvaste*, *hamiše*, *gāh*, *gāhi*, *nāgāh*, *nāgehān*, *hamvāre*, *dir*, *zud*, *bāmdād*, *duš*, *pār*, *pirār*, *ruz*, *dar dam-e*⁸².

